

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**Urinova Latofat**

**MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARIDA  
SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**5A210201 – Psixologiya**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: Psixologiya fanlari  
nomzodi. dots. X.Karimov**

**QARSHI – 2017**

## Mundarija

<b>Kirish</b> .....	4
<b>I.BOB. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni psixologik jihatdan o'rganishning ilmiy nazariy asoslari</b> .....	9
1.1.Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni o'rganish pedagogik–psixologik muammo sifatida.....	9
1.2.Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	18
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	19
<b>II.BOB. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini empirik o'rganish natijalari</b> .....	20
2.1.Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsi xususiyatlarining shaxslararo munosabatlardagi o'rni.....	20
2.2.Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsidagi tashvish va ortiqcha nevroitiklik holatining shaxslararo munosabatlarga ta'siri.....	26
2.3. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida muloqotga kirishimlilik darajasining ifodalanishi.....	29
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	35
<b>III.BOB. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini anglashi va shaxslararo munosabatlar jarayonida yosh davri xususiyatlarining ifodalanishi</b> .....	36
3.1. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini anglashi darajasining shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatiga ta'siri.....	36
3.2.Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari yosh davri xususiyatlarining shaxslararo munosabatlarda ifodalanishi.....	45
3.3. Tajriba sinov ishlari va natijalar tahlili.....	48
Uchunchi bob bo'yicha xulosalar.....	48
Umumiy xulosa.....	50
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	52

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda mustaqillik yillarida inson shaxsiga nisbatan bo'lgan munosabat keskin o'zgardi. Jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir shaxs taqdiriga alohida e'tibor qaratila boshlandi. **2017-yil nomidan kelib chiqib** Ayniqsa, muayyan sabablarga ko'ra, o'z ota-onasidan, yaqin kishilari mehridan mahrum bo'lgan yetim va qarovsiz bolalarga ta'lim-tarbiya berish, alohida ijtimoiy himoyaga olish ishlarining samarali yo'lga qo'yilgani bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotganligining belgisidir. Xususan bu masala ijtimoiy psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi ham shubhasizdir. Zotan, kelajagi buyuk davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning asosiy bo'g'ini bo'lmish oilalarning mustahkamligi, uning jamiyat oldidagi asosiy funksiyalaridan biri bo'lmish tarbiyaviy vazifasini to'la-to'kis bajarishga, unda voyaga yetayotgan bolalarning to'liq oilalarda, ota-ona mehriga qonib, jamiyatning yetuk fuqarosi sifatida shakllanib ulg'ayishiga sharoit yaratish davlatning ustovor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Buning uchun eng avvalo, mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilar sonini keskin kamaytirish, ularda mehribonlik uylarida emas, balki o'z ota-onalari quchog'ida, yaqinlari atrofida ulg'ayishini ta'minlash mustaqil Respublikamizning istiqbolini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida, shu jumladan respublikamizda ham yetim va qarovsiz bolalar miqdori garchand keskin darajada yuqori ko'rsatgichga ega bo'lmasada, ularning soni sezilarli oshib bormoqda. Shu bois bir qator chet el, hamdo'stlik mamlakatlari hamda O'zbekiston olimlari tomonidan ushbu muammoning ijobiy yechimini topish maqsadida imiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, Andresyan A.P., Vinogradova A.A., Kim R.P., Lobanov A.A., Semenova V.YE., Tursunov S., O.Ochilov, Haydarov I.O. kabi tadqiqotchilar ishlarida yetim va qarovsiz bolalar bilan ishlash, bu holatlar yuz berishining yetakchi omillarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash hamda jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida tarbiyalash kabi qator masalalar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan [10,19,40,50].

Respublikamizda mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga har tomonlama e'tibor qaratish borasida hukumatimiz bir qator amaliy tadbirlarni amalga oshirmoqda. Yurtimizda yetim va qarovsiz bolalarga moddiy-maishiy shart-sharoit yaratib berilishi bilan bir qatorda, mehribonlik uylari, maktab internatlarida tarbiyalanayotgan bolalarning shaxs sifatidagi va individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik, axloqiy, aqliy xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Butun dunyoda va shu jumladan, respublikamizda dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralayotgan qarovchisini yo'qotgan bolalar sog'ligini, ma'naviy – axloqiy jihatdan normal rivojlanishini ta'minlash va ularni jamiyatning yetuk, to'laqonli a'zosi sifatida tarbiyalash, voyaga yetkazish masalasi har qachongidan ham ahamiyatli muammolardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham biz o'z oldimizga mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini o'rganishni asosiy maqsad qilib oldik.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Umumjahon muammolaridan biri hisoblangan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik, pedagogik xususiyatlarini tadqiq qilish borasida barcha xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlari singari Respublikamizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik, huquqiy, pedagogik xususiyatlari, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining statistik, demografik, hududiy xususiyatlari har tomonlama tahlil qilishga harakat qilinadi.

Tadqiqotchilardan O.Ochilova, Q.Oxunov, O.Jalilov, Muhayyo O'ktamxon qizi, N.Po'latova, I.Haydarov kabilar mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining pedagogik, psixologik, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar [50 ].

Psixolog olimlardan A.S. Rotenbyuerg va S.M.Bondorenko mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tajavvuzkorlikning kelib chiqishi sabablarini, nemis tadqiqotchisi G.Ammon odamning tajavvuzkorlik xislati, tadqiqotchi N.N.Tolstix tomonidan yoshlarning kelajakka ishonchi, unga nisbatan bo'lgan munosabat,

hayotiy rejalar, vaqtinchalik imkoniyat yaratish, o‘smirning kamol topishi ijtimoiy psixologik vaziyatlar ta’siri ostida kechishi kabi masalalar ilmiy tadqiq qilinadi.

**Tadqiqotning obyekti.** Qamashi tumani mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti.** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik omillari, mazmuni va vositalari.

**Ilmiy tadqiqotning maqsadi** - mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini o‘rganish, usullarini ishlab chiqish va nazariy asoslash.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqotimiz maqsadi va ilgari surilgan ilmiy taxminlarni yechish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mavzuga doir adabiyotlarni nazariy tahlil qilish;
- psixologiya fanida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari muammosining o‘rganilganlik holatini tahlil qilish;
- mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish;
- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini tadqiq qilish;
- mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsidagi tashvish va ortiqcha nevroitiklik holatining shaxslararo munosabatlarga ta’siri masalasini tadqiq qilish;
- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlardagi nizolar va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish;
- mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarning o‘z-o‘zini anglashi darajasining shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatiga ta’sirini tadqiq qilish;
- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari yosh davri xususiyatlarining shaxslararo munosabatlarda ifodalanishi masalasini tadqiq qilish;

- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari yosh davri xususiyatlarining shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga yordam beruvchi metod va vositalarni aniqlash;
- Samarali metod va vositalar yordamida tajriba –sinov ishlarini olib borish hamda natijalarini tahlil qilish;
- Tahlil natijalariga ko'ra xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik psixologik omillari ijtimoiy psixologiya, yosh davrlari va pedagogik psixologiyada dissertatsiya misolida ilk maratoba o'rganilmoqda.

**Tadqiqotning ilmiy farazi.** Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning shaxs va individual - psixologik xususiyatlari shaxslararo munosabatlar samaradorligini oshirish mumkin; Agar.

- mavzuga doir adabiyotlar nazariy tahlil qilinsa;
- psixologiya fanida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari muammosining o'rganilganlik holati tahlil qilinsa;
- mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining shaxs va individual-psixologik xususiyatlari o'rganilsa va tahlil qilinsa;
- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari tadqiq qilinsa;
- mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsidagi tashvish va ortiqcha nevroitiklik holatining shaxslararo munosabatlarga ta'siri masalasi tadqiq qilinsa;
- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlardagi nizolar va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilsa;
- mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini anglashi darajasining shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatiga ta'siri tadqiq qilinsa;
- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari yosh davri xususiyatlarining shaxslararo munosabatlarda ifodalanishi masalasi tadqiq qilinsa;

- mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari yosh davri xususiyatlarining shaxslararo munosabatlarini yaxshilashga yordam beruvchi metod va vositalar aniqlansa;
- Samarali metod va vositalar yordamida tajriba –sinov ishlari olib borilsa hamda natijalari tahlil qilinsa;
- Tahlil natijalariga ko'ra xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilsa.

### **Adabiyotlar tahlili:**

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarida mustaqillik yillarida yurtimizdagi olib borilgan ishlar hamda olib borilgan tub islohatlar samarasi va bugungi faravon kunimiz haqida bayon etilgan. Albatta ushbu kitob har bir sohada o'z ahamiyatiga egadir.

Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Ushbu qo'llanmada "Ta'lim to'g'risidagi "Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqida bayon etilgan. Shuning uchun ham ta'lim samaradorligini oshirishda Mehribonlik uylariga g'amxo'rlik ko'rsatish belgilab qo'yilgan. Ushbu qo'llanmadan dissertasiya ishimizda samarali foydalandik.

Taraqqiyot asosan jamiyatdagi kishilar odobi orqali amalga oshiriladi. Odob, milliy qadriyatlarimiz ko'zgusi bo'lib, unda odob va insoniy munosabatlar qadimdan Sharqda, ayniqsa Markaziy Osiyoda boy ma'naviy ruhiyatga ega ekanligini rivoyatlar orqali bilib olish mumkin. Qo'llanma kitobxonlar ommasiga, shuningdek, o'qituvchi va tarbiyachilarga mo'ljallangan bo'lib, barcha uchun foydali bo'lishi tabiiy.

B. Ziyomhammadovning "Pedagogik mahorat asoslari" nomli kitobidan o'rinli foydalanishga erishdik. Ushbu o'quv qo'llanma Sharq mutafakkirlarining ta'lim –tarbiya to'g'risidagi fikrlaridan kelib chiqib yozilgan. Kitob barcha turdagi o'qituvchi va pedagoglarning mehnat faoliyatlariga hamda ota-onalarning bola tarbiyasi bilan shug'ullanishlari uchun dasturiamal vazifasini o'tashiga ishonchimiz komil.

Tohir Usmonning “Mehribonlik uyimiz” deb nomlangan kitobi bugungi kunda Mehribonlik uylarining aynan Qamashi tumanidagi 1-sonli Mehribonlik uyi haqida yozilgan. Ushbu kitob ham dissertasiya ishimizda katta ahamiyatga egadir.

O'. Asqarovaning “Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi” nomli monografiyasida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning ijtimoiy pedagogik mohiyati, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatni tayyorlashning asosiy yo'nalishlari to'g'risida so'z yuritiladi. Tadqiqot mutaxassis-pedagoglar, mustaqil tadqiqotchilar va ijtimoiy soha xodimlari ushun mo'ljallangan.

B. Sodiqovning “Bolalikning qayg'uli qo'shig'i” nomli risolasi yetimlikning achchiq qismati haqida yozilgan. Qayg'uli kun ortidan yaxshi kun kelishiga ishonch bilan qaray olish shoirning ushbu kitobida keltirilgan. Kitob nafaqat kattalar uchun balki Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari uchun ham ahamiyatga egadir.

### **Ilmiy tadqiqot metodlari.**

1. Shaxs xususiyatlarini o'rganish testi (R.Kettelning 16 faktorli varianti).
2. V. L. Marishchukning “Tashvishlanish va nevroitiklik sathini o'lchash” testi.
3. K.Leongardning “Aksentuatsiya xususiyatlarini o'rganish” testi
4. “Shaxsning muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatleri” testi.
5. Ijtimoiy-psixologik so'rovnoma.
6. Kuzatish.
7. Eksprement.
8. Matematik - statistik tahlil

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari, nazariy tahlillar pedagogik va yosh davrlari psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya fanlarini hamda shaxs psixologiyasi, muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi kabi mavzularni psixologik ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalaridan olingan xulosalar va ular asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyanomalar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va pedagog-tarbiyachilari faoliyatida, ichki ishlar vazirligi voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘limi xodimlari faoliyatida hamda mehribonlik uyi amaliyotchi psixologlari faoliyatlarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning metodologik asosi.** Qonun, qaror farmon va nizomlar Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlangan asarlari va g‘oyalari, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik, shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan A.A. Vinogradova, N.Prixojan, L.Tolstix, I.O.Haydarov, O.Ochilov, Muhayyo O‘ktamxon qizi, N.Po‘latovalarning izlanishlari, hamda ularda ilgari surilgan ilmiy-nazariy g‘oyalari tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil qildi.

**Birinchi bosqich** (2015-2016 yillar)da tadqiqot mavzusi bo‘yicha falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik adabiyotlar va matbuot materiallari o‘rganilib tahlil qilindi. Tadqiqot bo‘yicha tajriba-sinov dasturi tuzilib, ta‘kidlovchi tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi, mavjud holat tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik jarayonning mazmuni aniqlanib, nazariy jihatdan asoslandi.

**Ikkinchi bosqich – yakuniy bosqich** (2016-2017 yillar)da tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi, nazariy jihatdan umumlashtirildi va yakunlandi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalashga yordam beruvchi nazariy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida olingan natijalar matematik-statistik metod yordamida tahlil etildi, umumlashtirilib dissertatsiya shakliga keltirildi.

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalash dolzarb pedagogik-psixologik muammo ekanligi;

2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalash mazmuni, shakl, vosita, metodlari;

3. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalash va ularning samaradorlik darajasi;

4. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari;

5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar.

**Tadqiqot ishining tuzilishi.** Tadqiqot ishi kirish qism, 3 bob, 8 paragraf, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## **I.BOB. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganishning ilmiy - nazariy asoslari.**

### **1.1 Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni o'rganish pedagogik-psixologik muammo sifatida**

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida o'z ota-onalari mehridan mahrum bo'lgan bolalar soni yetti yuz mingdan ortib ketgan. Bu o'z navbatida yetim va qarovsiz bolalar muammosi jamiyatda o'ta dolzarb muammolardan biriga aylanib borayotganligini ko'rsatadi.

Bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning shaxs, individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar sobiq ittifoqda 50-60 yillarda amalga oshirilgan. Bundan keyingi yillarda bu muammoni o'rganishga bo'lgan e'tibor biroz susayganligi kuzatiladi. Shu tufayli Respublikamizda ko'p yillar mobaynida mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalar va o'smirlarning psixologik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish ishlari olib borilmadi. Ammo mustaqillik yillarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga nisbatan yangicha munosabat uyg'ondi. Respublikamiz hukumati tomonidan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini moddiy, ijtimoiy tomondan qo'llab-quvvatlash borasida juda ko'plab qarorlar va amaliy tadbirlar ishlab chiqildi. Bu o'z navbatida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganishga keng yo'l ochib berdi. Yetimlik ilohiy bir qismat shuning uchun ham inson peshonasida yozilganini ko'rishi taqdiri azaldir. Darhaqiqat, taqdir qismatidan qochib qutilib bo'lmaydi. Ana shunday qismat norasida go'dakni "Mehribonlik uyi"ga yetaklab keladi. Mehribonlik uylari sobiq sho'rolar davrida yetim xonalar nomi bilan paydo bo'lgan. Bu davrda minglab oilalarning xonavayron bo'lishi oqibatida yetim va qarovchisiz qolgan bolalarni boqish va ularni jamiyatga sodiq farzand etib tayyorlash maqsadida tashkil etilgan edi. Bugungi kunda esa Mehribon, xalqsevar, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ularni o'z bag'riga olishi natijasida "Mehribonlik uylari" nomi bilan yuritila boshlandi. Alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan buyon Mehribonlik uylariga

alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida quyidagilar qayd etilgan: Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.<sup>1</sup> (1.13)

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi hamda Mehribonlik uylari davlat tomonidan quyidagicha ta'minlanadi:

1. Ma'nan va ruhan qo'llab quvvatlanadi
2. Ta'lim–tarbiya jarayoni alohida e'tiborga olinadi
3. Ijtimoiy–iqtisodiy jihatdan moddiy tomondan to'liq ta'minlanadi.
4. Tarbiyalanuvchilarning sog'ligiga alohida e'tibor beriladi va tibbiy shart-sharoitlar yaratiladi.
5. Tarbiyalanuvchilarning barcha shart – sharoitlariga alohida e'tibor beriladi.
6. Ma'naviy-ma'rifiy tomonlariga zamin yaratiladi.
7. Tarbiyalanuvchilar o'qish faoliyati bilan shug'ullanishi va bo'sh paytlarini mazmunli o'tkazishlari uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Ushbu fikrlar Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini doimo boshini silashga mehribon qo'llar borligini hamda vatanimiz, mehribon yurtboshimiz ularga g'amxo'r ekanligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 22-moddasini keltirmoqchimiz. Yetim bolalarni va ota–onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlatning to'la ta'minoti asosida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.<sup>2</sup> (26.26) Shuning uchun ham tarbiyalanuvchilarning huquqlari qonunda ko'rsatilgan tegishli huquqlari asosida himoya qilinadi. Bizga ma'lumki, Mehribonlik uylariga mustaqil yuridik shaxs maqomi berilgan. Boshqa davlat tashkilotlariga mustaqil ish olib borishda qanday

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. T: "O'zbekiston" 2008.40 bet.

<sup>2</sup> Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T: "Sharq nashriyoti"1998. 63 bet.

huquqlar berilgan bo'lsa, Mehribonlik uylariga ham ana shunday maqom berilgan. Mehribonlik uylari ham mustaqil ravishda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish yurita oladi. Ishonch bilan shuni ayta olish mumkinki, O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon juda ko'p samarali ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida Mehribonlik uylariga yanada yaqindan yondashish maqsadida qarorlar qabul qilinib, ular amalda o'z ijrosini topdi.

Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 18-fevralda 59-sonli qarori aynan "Mehribonlik uyi" to'g'risida qabul qilinib, u o'zining amaldagi ijrosini ta'minladi. Ushbu tarixiy qaror har tomonlama muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu qaror o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarimizni, an'analarimizni o'zida namoyon etib, ajdodlarimiz merosiga asoslanadi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yordam bera oladi va ahamiyat kasb eta oladi. Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorining amaldagi ijrosini ta'minlash maqsadida "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi. Ushbu nizom yetti qismdan iboratdir, ya'ni ular quyidagilar:

- Umumiy qoidalar
- O'quv - tarbiya jarayoni tuzilmasi va uni tashkil qilish.
- Tarbiyalanuvchilar.
- Kadrlar.
- Mehribonlik uyini boshqarish.
- Moliyaviy-xo'jalik faoliyati.
- Xalqaro hamkorlikda qatnashish.<sup>3</sup> ( 3.Ma'rifat gazetasi)

2007-yilni "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan hamda aholini ijtimoiy himoya qilish ko'lamlarini yanada kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj oialalariga, nogironlar va yolg'iz keksalarga aniq, tabaqalashtirilgan tarzda yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish, aholi daromadlari darajasidagi farqlarni keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik, jamiyatda hamjihatlik, ezgulik va mehr-shafqat muhitini qaror toptirish bo'yicha aniq

---

<sup>3</sup> Vazirlar Mahkamasining 1995yil 18-fevraldagi 59-sonli Qaroriga 3-ilova "Mehribonlik uyi to'g'risida Nizom", "Ma'rifat gazetasi, 1995 yil 29-mart."

maqsadga yo'naltirilgan chora tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida: "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi tasdiqlandi. Bu ham bugungi kunda davlatimizning g'amxo'rligi namunasidir. Dasturning mohiyatiga e'tibor qaratamiz. Ushbu dasturda Mehribonlik uylari haqida shunday ko'rsatilgan.

"Mehribonlik uylari" va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining moddiy-texnika bazasini, boquvchisidan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risida e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, "Sen yolg'iz emassan" maqsadli vazifasini hayotga aniq tadbiriq etishdan iboratdir.<sup>4</sup>(12.99)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 oktabrdagi "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 230-sonli qarori to'g'risida.

Yuqorida "Mehribonlik uyi to'g'risidagi Nizom"ning tub mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak unda Mehribonlik uylariga bugungi kunda davlatimizning g'amxo'rligi hamda ularning tarbiyasi va ta'limiga e'tibor va takomillashtirish yo'llari aytib o'tilgan. Bularning barchasi Mustaqillik mevasidir. Ushbu yillarda olib borilgan kuchli ijtimoiy siyosatning belgisi hisoblanadi. Islohatlarning ikkinchi bosqichida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yuqori darajaga ko'tarildi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllanishida olib borilayotgan islohatlarni amaldagi ijrosi ham ta'minlanib borilmoqda. Bularning barchasi Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni shakllanishida yordam beradi. Bugungi kunda Mehribonlik uylarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir xodim albatta bularga yaqindan yondasha olmog'i lozim. Shuningdek, o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishda to'g'ri yondasha olib, tarbiyalanuvchilarning yaqin o'rtog'iga aylanishi shart. Bu borada albatta ulardan samimiylilik va o'z kasbiga faollikni talab etadi. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida saxslararo munosabatlarni shakllanishida o'zaro bog'liqlikda

---

<sup>4</sup> Karimov I.A "Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish- barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir" T: "O'zbekiston"2007. 102 bet.

bir necha tizim muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimlarning birortasini Mehribonlik uyi faoliyatidan ajratib bo'lmaydi. Ularni o'z o'rnida alohida faoliyati mavjud. Ushbu tizimni quyidagi jadvalda keltiramiz.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining 60-70 foizini ota-onalari tirik bo'lgan bolalar tashkil etadi. Garchand bu masala bo'yicha butun dunyo olimlari keng ko'lamda ilmiy izlanishlar olib borsalarda bu sohada yaxshi natijalarga erishilganicha yo'q. Buning sababi bizningcha, birinchidan: bu yo'nalishda qo'lga kiritilayotgan ma'lumotlarning bir xil emasligi, ilmiy kuzatishlar turli nazariyalar asosida olib borilganligi va har xil ilmiy tadqiqot metodikalaridan foydalanilgan holda erishilgan natijalarni bir - biri bilan taqqoslash qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarganligiga borib taqaladi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil natijalari ma'lum bir ijtimoiy madaniy sharoitlarda amalga oshirilgan hamda u yoki bu mamlakat yoki millat an'analari asosida bolalar muassasalari toifasi, uning katta mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkazilgan bo'lib, ular boshqa mamlakat, millat urf - odatlariga va etnik xususiyatlariga mos kelmaydi. Va nihoyat uchinchidan, ruhiy tushkunlikka bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar kichik maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilarda olib borilgan hamda bu kuzatishlar bir xil pedagogik - psixologik xarakterdagi yo'nalishda bo'lganligiga borib taqaladi.

Aynan ushbu vaziyatlardan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, ulardagi psixologik o'zgarishlarni, aqliy axloqiy, xarakter hamda shaxslararo munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni o'z olodimizga maqsad qilib oldik.

Ma'lumki, yetim va qarovsiz bolalar oiladagi bolalardan u yoki bu xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Xususan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari xarakterida tajovvuzkorlik (agressivlik), ruhiy tushkunlik (dipressiya), o'zini o'zi anglashdagi noturg'unlik, kabilar kuzatiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bunday xususiyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillardan biri – ota-onalik mehrining yetishmasligi, ota-ona tarbiyasiga muhtojlik hisoblanadi.

Angliyalik psixolog tadqiqotchi R. Bernis onalik mehri tashnalikni tahlil qilib, shunday yozadi: “Salbiy dalilsiz “Men konsepsiyasi”ning rivojlanishi va hissiz tajavvuzkorlik bolaning ota-onasiga va ota-onalik rolini bajaruvchi kishilarga nisbatan qo'polligi natijasidir. Buning natijasida bolada hech kimga qo'shilmaslik, odamovilik, tundlik hissi paydo bo'la boshlaydi. Bular esa “Men konsepsiyasini” belgilaydi” [47].

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tajavvuzkorlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab tengdoshlari va murabbiylari bilan kelisha olmaslik, shaxslararo munosabatlardagi nomutanosiblik bo'lib hisoblanadi.

Psixolog olimlardan A.S. Rotenbyuerg va S.M.Bondorenko mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tajavvuzkorlikning kelib chiqishi yuzasidan o'z ilmiy qarashlarini bayon etib quyidagilarni ta'kidlaydilar: “Agar bolalarda izlanuvchanlik faolligi yo'nalishi o'zgartirilsa ularida tajavvuzkorlikni yo'qotish mumkin bo'ladi” [19]. Agarda tadqiqotchilarning mazkur qarashlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, nemis tadqiqotchisi G.Ammon qarashlariga yaqinlikni kuzatishimiz mumkin. G.Ammonning ta'kidlashicha, har bir odam tajavvuzkorlik xislati bilan tug'iladi, faqatgina keyinchalik shaxsning normal rivojlanishi natijasida bu tajavvuzkorlik asta-sekin ijodiy garmonik rivojlanishga o'tadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, o'smir va o'spirinlik yoshidagi tarbiyalanuvchilar uchun mehribonlik uyi oxirgi boshpana bo'lib, undan keyin mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Mustaqil hayot kechirish tasavvuriga ega bo'lmagan bolalar ko'pincha hayotda qiynalib qoladilar. Tadqiqotchi N.N.Tolstix tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rstadiki, kelajakka ishonch, unga nisbatan bo'lgan munosabat, hayotiy rejalar, vaqtinchalik imkoniyat yaratish, o'smirning kamol topishi ijtimoiy psixologik vaziyatlar ta'siri ostida kechadi. O'smirning psixofiziologik kamolotida ijtimoiy vaziyatning roli bu bolalar psixologiyasi asosiy muammolardan hisoblanadi. Bu g'oya o'z davrida

L.S.Vigotskiy tomonidan ham alohida ta'kidlangan va bu qarash keyinchalik shaxs psixologiyasi bo'yicha yetuk mutaxassis L.I.Bojovich tomonidan rivojlantirilgan.

Tadqiqotchilar A.M.Prixojan, N.N.Tolstixlarning ko'rsatishicha, bolalar uyi tarbiyalanuvchilari uchun kundalik hayot, axloqiy meyorlar, o'qish rejimiga itoat etish bilan bog'liq bo'lgan dominantli istak ahamiyatli hisoblanadi. Oddiy oilada tarbiyalanuvchilarni esa kundalik hayot tashvishlari bilan birga ko'pincha umuminsoniy muammolar ham qiziqtiradi. O'qishdan, oilaviy yumushlarga qarashishdan tashqari bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazish va hokozalarni mustaqil hal qilishadi [44].

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilardagi bir tomonlama faoliyat motivining kambag'alligi nafaqat hayotiy tajribaning yetishmasligi bilan balki, kattalar bilan munosabat xarakteriga ham bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, maktab yoshigacha va kichik maktab yoshidagi bolalar psixikasining rivojlanishida kattalarning o'rni beqiyosdir. Ularda kattalar bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji mehribonlik uyi kabi muassasalarda ayniqsa kuchliroq seziladi va alohida xususiyat kasb etadi hamda bunday munosabatlar tarbiyalanuvchilarning o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shaxslararo munosabatlardagi nomutanosiblik ayniqsa bahsli vaziyatlarda, ta'qiqlashlar, qiziqishlar tuqnashuvida, kattalar tanbehida, tengdoshlari tomonidan ayblanishlarda yanada ko'zga tashlanadi. Bunday vaziyatlarda bolaning tajovuzkorligi, boshqalarni ayblashi, o'z aybini tan olmaslik va muammoli vaziyatlardan chiqib ketaolmaslik kabi xislatlar namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatlarda shuni nazarda tutish lozimki, yopiq holdagi bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchilar juda tor doiradagi guruhlar bilan munosabatda bo'ladi, ularda boshqa guruh yoki o'zi istagan jamoa bilan muloqotda bo'lish cheklangan bo'ladi va shu bilan birga o'zi o'sayotgan jamoadan chiqib ketish imkoniyati cheklangan bo'ladi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida o'zlaridan katta yoshdagi kishilar bilan munosabatga kirishishga nisbatan intilishning amalga oshmasligi kattalarga nisbatan tajovuzkorlikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqotchi Rotenberg fikricha, tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatga nisbatan bo'lgan ehtiyojda

kattalarning ta'minlovchi sifatida qabul qilishlariga, o'zining muloqot ehtiyojining yechimini ulardan kutishi, ularning o'zlari mustaqil erishish vazifasini bo'yinlariga olmaslikni namoyon qiladi.

Ilmiy tadqiqotlardan shu narsa ma'lumki, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar kattalarga yoki tarbiyachilarga yoqish uchun tartibga, ichki intizomga bo'ysunishga harakat qiladilar. Agar oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'zining xarakteridan tashqari ham sevimli ekanligini hisobga olsak, mehribonlik uyida tarbiyalanayotganlar kattalarning ijobiy munosabatiga erishish uchun axloqli, odobli bo'lishi, tartib intizomga bo'ysunishi, meyorlarga qat'iy itoat qilishi lozim bo'ladi. Xulosa qilib aytganda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining psixologik rivojlanishi shunday o'ziga xos xususiyatlarga egaki, bu psixik rivojlanishdan orqada qolish emas, balki bu ichki tushuncha, tasavurning namoyon bo'lmaganligi, harakatlantiruvchi fikrlar va axloqiy javobgarlikning tashqi vaziyatlar bilan bog'liqlik holati bilan xarakterlanadi.

Mehribonlik uyi va maktab internatlari misolida jins psixologiyasi bo'yicha ham bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan oila va mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan o'smirlarda jins psixologiyasining shakllanish xususiyatlarini tadqiqotchi T.I.Yuferova o'rganib, oilada tarbiya topgan o'smirlar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga nisbatan tanqidiy munosabat darajasida ham farqli tasavvurlarga ega ekanligi aniqlangan. Oilada tarbiyalanuvchilar erkak va ayol hamda oilaviy munosabatlar haqida real tasavvurga ega bo'ladilar. Bunday tasavvurlarni shakllantirish uchun mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida maxsus tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Kichik yoshdagi mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarda qiziquvchanlik va shaxslararo munosabat xususiyatlarini o'rganish yuzasidan psixolog olim T.M.Zemlyanuxina qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi. Xususan u bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchilarning psixik taraqqiyotida umumiy tarbiya maskanlaridagi bolalarga nisbatan ancha orqada qolish holati mavjudligini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qiladi. Tadqiqotchi o'z kuzatuvlari va ilmiy izlanishlariga asoslanib, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida muayyan faoliyatga

yoki biror bir o‘quv predmetiga nisbatan bo‘lgan qiziqish faolligi sust va u namoyon bo‘lgan taqdirda ham qo‘rquv va ehtiyotkorlik asosida kechadi deb ta’kidlaydi.

O‘z davrida mehribonlik uyidagi tarbiya jarayonining o‘ziga xos murakkabliklari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan tadqiqotchi S.A.Dzenushkayte bolalar uylarida tarbiyalanuvchi shaxsining barcha maqsadlarini. Istiqbolini ifodalovchi tarbiya maqsadining insonparvarlik xususiyatlarini quyidagicha ta’kidlaydi:

- kimki yordamga muhtoj bo‘lsa, unga sitqidildan yordam ko‘rsatish lozim;
- boshqalarga nisbatan hurmatda bo‘lish;
- boshqalar qo‘vonchiga, g‘amiga sezgirlik bilan munosabatda bo‘lish;
- boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lish;
- insoniy qadr-qimmatga putur yetkazmaslik;
- odamlar orasidagi insonparvarlik munosabatlariga zid ko‘rinishlarga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish [28].

Bugungi kunda butun dunyo miqyosida va Respublikamizda yetim va qarovsiz qolgan bolalarni oila tarbiyasiga olish muammosi eng dolzarb muammolar qatorida ko‘tarilmoqda. Mehribonlik uylari yoki boquvchisini yo‘qotgan bolalarni oilalar qaramog‘iga olish yurtimizda qadim-qadimdan eng ulug‘ milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan bir paytda bugungi kunda bunday bolalarni oilalarga olish ular tarbiyasini oila a‘zolari ta’sirida amalga oshirish davr talabiga aylanib bormoqda. Shu boisdan bugungi kundla qancha-qanchalab yetim va qarovsiz qolgan bolalar mehri daryo, qalbi dunyo insonlarimiz tomonidan o‘z qaromog‘lariga olinmoqda. Hech bo‘lmaganda ularga moddiy, ma’naviy va ruhiy yordamlar ko‘rsatilib ularning ko‘ngllarini ko‘tarishdek savob ishlar amalga oshirmoqdalar.

Yetim va qarovsiz bolalarni oilalar qamroviga olish va uning ilmiy asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi A.S.Spivakovskaya [47]. qarovchisini yo‘qotgan bolalarni oilaga olib tarbiyalash xususiyatining ikki xil ko‘rinishini kursatadi.

Birinchi toifaga quyidagi sabalar taalluqli: turmush tarzi etiyojini boshqarishga asoslangan tarbiyaga erishish, oliy maqsad yoki aniq sifatlar ta'minlashiga oid tarbiya. Ikkinchi guruhga: emotsional bog'lanishli ehtiyojlarning aniq tizimlar ta'minotiga asoslangan tarbiya [47].

Mehribonlik uyi va maktab internatlaridagi tarbiyalanuvchilarning shaxs va individual-psixologik xislatlarining shakllanishi va qator psixik holatlariga taalluqli muammolari bilan xorijiy davlatlar olimlari ham keng qamrovli ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Xususan, avstriyalik tadqiqotchi A.Adler [9]. qarovsiz bolalar orasidagi jinoyatchilik, qonunbuzarlik holatlarini o'rganib, ba'zi bir tadqiqotchilar fikrlarini inkor qiladi. Jumldan, uning fikriga ko'ra qarovsiz holda qonunbuzarlik bilan shug'ullanib ketgan bolani tarbiyaga olib, qayta tiklash mumkin emasligi haqidagi qarashga tanqidiy munosabat bildiradi va bola hech qachon tug'ma ravishda jinoyatchi yoki qonunbuzar bo'lib tug'ilmaydi. Demak bunday bolalarni qayta tarbiyalash mumkin deb ta'kidlaydi [9].

Oilasida o'zi yaqinlaridan ajralib qolish oqibatida bolalarda salbiy hissiyotlarning rivojlanib borish omillarini o'rgangan tadqiqotchi A.Freyd [53]. o'z ilmiy izlanishlarida bolani onasidan ajratib tarbiyalash jarayoni bolaning ruhiy holatini izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Oilada o'z onasini, uning hissiy munosabatlarini eslay oladigan bolalar o'z onasini tez-tez qumsab turadi, o'z onasi bilan uzoq vaqtgacha ko'rishmaslik esa ularda salbiy hissiyotlarning namoyon bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi tadqiqotchi [52].

Amerikalik psixolog R.A.Shipits bolalar uyidagi intizomni saqlash uchun qo'llaniladigan jazolashni qat'iy qoralaydi. Uning fikricha bolalarni guruh oldida jazolash yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Aybsiz aybdorlar jazo yarasini unutishlari qiyin kechadi. Ularning orqasidan izquvarlik qilish ham yaramaydi. Bu yerda ham aybsiz bolalar aybdor bo'lib qolishlari hech gap emas. Buning o'rniga sodir etilgan jinoyatni guruh oldida muhokama etish yaxshi natijalar berishligini unutmasligimiz lozim. Bunday vaziyatlarda u birinchi navbatda intizomning buzilishi sabablarini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatib o'tadi. Ikkinchidan

ishonch va aralashish intizom buzilishi bilan bog'liq bo'lsa, jazolash voqea sodir etilgandan so'ng qo'llanilishi lozim. Jazolash paytida bolalar shu tarbiyachi intizomni tiklashini va shu yerda tartib o'rnatish olishligini bilishi kerak bo'ladi.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, intizom buzilishiga taalluqli masalalardan biri bu tarbiyachining shaxsiy xarakteristikasi. Bu masala yuzasidan K.F. Tonulya, K.T.Torenburg, V G.Vasmund va boshqalar ilmiy izlanishlarni olib borishgan.

Yana bir Amerikalik tadqiqotchi A.Y.Marokko qarovchisini yo'qotgan bolalar muammosi ustida, ularning psixik rivojlanishi borasida fikr yuritib, bolalarning yashash sharoitini yaxshilashga ko'mak, yordam berishning bir qancha yo'llarini ko'rsatib o'tadi.

Shunday qilib, yuqorida o'rganib chiqilgan manbalar sharhi davomida shu narsaga iqror bo'ldikki, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning shaxs xususiyatlari, xarakter xislatlari, axloqiy bilimlari. Aqliy imkoniyatlari, oliy nerv faoliyatining xususiyatlari, o'zini o'zi anglash va bir qator ijtimoiy-psixologik muammolarni ochib beradigan aniq manbalar hozircha yetarli emas. Mavjudlarida ham mazkur muammo bir tomonlama tadqiq etilganligi, hududiy va mintaqaviy jihatdan hamda milliy qadriyatlarimizga ma'lum darajada mos kelmasligi holati ko'zga tashlanadi.

Umumjahon muammolaridan biri hisoblangan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik, pedagogik xususiyatlarini tadqiq qilish borasida barcha xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlari singari Respublikamizda ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarida mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining individual-psixologik, ijtimoiy-psixologik, huquqiy, pedagogik xususiyatlari, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining statistik, demografik, hududiy xususiyatlari har tomonlama tahlil qilishga harakat qilinadi.

Respublikamizda mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari muammosini ilmiy tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarni kuzatar ekanmiz, butun dunyo mamlakatlarida bo'lgani singari ushbu muammoni ilmiy tadqiq etish ishlari bir necha yo'nalishlar bo'yicha olib borilganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan

mazkur muammo huquqiy, pedagogik, sotsiologik, demografik va psixologik yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan [45,51].

Yurtimizda mustaqillik yillarida barcha iqtisodiy, ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda turli xil sabablarga koʻra mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini oʻrganishga keng miqyosda kirishildi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishda barcha mamlakatlar qatori Respublikamizda ham keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq ilmiy manbalar tahlili bu boradagi ilmiy izlanishlarni yetarli emasligini koʻrsatmoqda. Shunga qaramasdan yurtimizda keyingi yillarda bu muammoga davlat siyosati masalasida qaralmoqda.

Oʻzbekiston Xalq taʼlim vazirligining 1994 yil 12 noyabrda boʻlib oʻtgan yigʻilishida bolalar va oʻsmirlar oʻrtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik, giyohvandlik, qonunbuzarlik, daydilik kabi salbiy illatlarning ortib borayotganligi munosabati bilan ularning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifasi mutasaddi tashkilotlarga topshirildi. Shuningdek, mazkur yigʻilishda mehribonlik uylari va oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar oʻrtasida bunday salbiy holatlarning oldini olish boʻyicha chora-tadbirlarni zudlik bilan ishlab chiqilishi alohida taʼkidlandi va ustuvor vazifalar belgilandi.

Bugungi kunda mehribonlik uylariga nisbatan xalqimizning munosabati oʻzgarib bormoqda. Yetim va qarovsiz bolalarga moddiy-maʼnaviy yordam berish yuzasidan qator amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan 1960 yilda mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi har bir bolga 70 soʻm, 1975 yilda 215 soʻm, 1985 yilda 415 soʻm, 1993 yilda 7000000 va bugungi kunda bu raqam besh baravardan ziyodga ortgan.

Ammo mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalarning maʼnaviy hayoti, ularning tarbiyasi va ularning kelajagini taʼminlash borasidagi muammo hali xotirjamlikka imkon bermaydi. Koʻp hollarda mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlarga berilayotgan tarbiyaning milliy asosda qurilmaganligi, bu sohadagi malakali mutaxassislarning yetishmasligi holatlari kuzatilmoqda. Ana shulardan kelib chiqib, Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida mehribonlik uylari

ta'lim-tarbiya tizimiga milliylikni kiritish, ular ma'naviy hayotining mazmundorligini ta'minlashga doir sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotchilardan O.Ochilova, Q.Oxunov, O.Jalilov, Muhayyo O'ktamxon qizi, N. Po'latova, I.Haydarov, Tuxmurodov A. kabilar mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining pedagogik, psixologik, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar [45,51].

Tadqiqotchi I.Haydarov izlanishlarida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsining individual-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilinadi.

## **1.2. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari**

**Mehribonlik uyilari** – yetim va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalar uchun davlat tomonidan ochilgan ta'lim tarbiya muassasasi. Yetim yoki qonuniy vasiylar qaramog'ida bo'lmagan bolalar, ota-onalari sud hukmi b-n ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, ota-onalari voz kechgan bolalar uchun tashkil qilingan. M.u.da 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan sog'lom bolalar yashashi va tarbiyalanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. M.u.da tarbiyalanuvchilarni o'qitish va boqish to'la davlat ta'minoti asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. M.u. 3-7 yoshli bolalar uchun bolalar botasi tartibida, 7-16 yoshli bolalar uchun umumiy o'rta ta'lim maktabi tartibida ishlaydi hamda maktab ta'lim tarbiyaviy dasturiga muvofiq ish olib boradi. M.u.da tarbiyalanuvchilarning maktab o'quv dasturini to'liq o'zlashtirishlari, ularning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash, jismoniy kamol topishlari, axloqiy hamda estetik tarbiya olgan barkamol shaxslar bo'lib yetishishlari ta'minlanadi. Shuningdek, yuqoridagi maqsadlarga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar olib boriladi. M.u. O'zbekistonda dastlab 1918 y. yetimxonalar asosida bolalar uyi nomi b-n tashkil etilgan. 2-jahon urushi yillarida jangchilarning bolalari uchun maxsus bolalar uylari ochilib, ularda Ukraina, Belorussiya, Litva, Latviya, Estoniya, Moskva, Leningrad va b. shaharlardan keltirilgan bolalar tarbiyalandi. 1995 y.dan M.u. deb nomlandi.

2002 y. O'zbekistonda 27 M.u. ishlatildi, ularda 3650 bola tarbiyalandi.

**Tarbiya**-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga karatilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chortadbirlar yigindisi. T. insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. T.siz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar T. tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Pedagogik adabiyotlarda «T.» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda T. inson shaxsini

shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda T. Faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va b.ni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi T. tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda T. shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi T. ichiga kirmaydi. Lekin har qanday T. ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi. T. har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining T.si bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish. to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

T. jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izoxdab kelingan. Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura T.ga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda T. faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning T.si bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq ped.si tajribasi T.ning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiki tufayli T.da ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi. Sho'rolar ped.sida T. orkali xar kanday odamni istagan ijtimoiy kiyofaga solish mumkin degan karash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining T.ga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida T. maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol T.ning samarasizligiga olib keldi. Chunki T.ning asosiy obekti bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib takaladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, T. va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayri ilmiy sinfiy partiyaviy yondashuvdan voz kechildi.T.ning milliyligiga alohida e'tibor karatilmoqda.

Buning uchun xalq ped.si boylilari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayotir. Natijada, O'zbekiston ped. fani va amaliyotida oila T.sining ham, ijtimoiy T.ning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, T.da irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida T.ning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol T.ga doyr hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

«**TARBIYAI ATFOL**» («Bolalar tarbiyasi») — Buxoro jadidlari tashkil etgan ma'rifiy jamiyat (1908—14). Abduvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Hamidxo'ja Meqriy, Ahmadjon Abdusaidov va b. asos solishgan. Jamiyat faoliyatida S.Ayniy, Usmon Xo'ja, M.Saidjonov va b. muxim rol o'ynagan. Jamiyat a'zolari soni 100 ga yaqin bo'lib, ularni Muhiddin Mansurov, Sadr Ziyo moddiy jihatdan qo'llabquvvatlagan. «Tarbiyai atfol.» iste'dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborish, usuli jadid maktablarini har tomonlama qo'llabquvvatlash, bu maktablar uchun o'quv qo'llanmalari va darsliklar yaratish, xorijdagi talabalarga moddiy yordam ko'rsatish ishlari bilan shug'ullangan. Jamiyatning sayharakati bilan, mas., 1908 y.da Istanbulda buxorolik va turkistonlik yoshlardan 14 kishi tahsil olgan. Jamiyat ko'magi bilan Fitratning «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti» va «Sayha» asarlari, shuningdek, S.Ayniy, A.Burhonov, Ikrom domla va b.ning kitoblari Turkiyada nashr etilib, Turkistonda tarqatilgan. Jamiyat ma'rifatparvarlik ishlari bilan birga ijtimoiy masalalarga ham e'tiborni qaratdi. Jamiyat a'zolari Buxoroda ma'rifatni yoyish, Fitratning Turkiston jadidchiligining dasturi hisoblangan asarlarini targ'ib etish bilan birga Buxoro amirligida xukm surgan diniy fanatizm va bid'atga qarshi targ'ibotlashviqot ishlarini olib bordi, shuningdek, amirlikdagi har qanday yangilikni bo'g'ishga qaratilgan tadbirlarga qarshi norozilik kayfiyatini izhor etib turdi.<sup>5</sup>

**Shaxs**-alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi.

Shaxs ijtimoiygumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur obekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxsning shakllanish omillari ko'p va xilmaxiddir. Mas, genetik (nasliy), biologiktabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o'z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar Shaxsning genetik jihati uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe'latvor bilan, biofiziologik jihati esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi. Shaxs, mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy tarixiy an'ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun

<sup>5</sup> Ад.: Айний Садриддин, Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар, М., 1926; Хўжаев Файзулла, Бухоро инкилобининг тарихига материаллар, Т., 1997; Эргашев Б.Х., Идеология наци онально-освободительного движения в бухарском эмирате, Т., 1991 Қаҳрамон Ражабов.

murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy ma'naviy meyorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson Shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi.

Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne'matlaridan to'la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo'lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to'laqonli shaxs bo'lib yetilmasligi mumkin<sup>6</sup>.

**SHAXS** (til shunoslikda) — ish harakatning so'zlovchi nuqtai nazaridan uning bajaruvchisiga aloqadorligini ifodalovchi, o'zaro qarama-qarshi shakllar tizimidan iborat grammatik kategoriya, morfologik ko'rsatkich. Shaxs shakllari ish-harakatning so'zlovchiga (1-SH.), tinglovchiga (2-SH.) va suhbatda ishtirok etmovchi o'zga shaxsga (3-SH.) qarashlilikini bildiradi. Harakat obektining shaxsi ko'p tillarda, jumladan, turkiy tillarda asosan fe'l orqali ifodalanadi. Mas, o'zbek tilida-ko'rdim, ko'rganman — 1-SH.; ko'rding, ko'rgansan — 2-SH.; ko'rdi, ko'rgan — 3-SH. shakllaridir;

b) ushbu shaxslarda nutq jarayoni (suhbat) ishtirokchilarigina ish-harakatning bajaruvchisi hisoblanadilar; 3-SH. esa: a) shaxs yoki predmet ma'nosiga ega bo'la oladi, 2) ish-harakatning ushbu shaxs orqali ifodalangan bajaruvchisi suhbat ishtirokchisi hisoblanmaydi. Shaxs kategoriyasi fe'lning boshqa kategoriyalari (mayl, zamon, nisbat kabilar) bilan paradigmatic va funksional munosabatlar orqali bog'lanadi. Ayniqsa, Shaxs kategoriyasining son kategoriyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni birgalikda nomlab, shaxsson kategoriyasi, ushbu ma'noni ifodalovchi shakl (ko'rsatkich)lar esa shaxsson qo'shimchalari deb ham ataladi. Shaxs tushunchasi muayyan leksemalar bilan kishilik olmoshlari tizimida, maxsus affiksial morfemalar (egalik qo'shimchalari) yordamida otlarda ham ifodalanishi mumkin. Bunda kishilik olmoshlari (men, sen, u; biz, siz, ular) bajaruvchi Shaxslarni, egalik qo'shimchalari esa (kitobim kitobing. kitobi) biror narsa — buyumning uch shaxsdan qaysi biriga qarashli ekanini bildiradi.<sup>7</sup>

**Xususiyat-** biror narsa va hodisaning boshqa narsa va hodisadan farqini yoki ularning umumiylikni kursatib turuvchi xossalari, jihatlari va belgilari. Xususiyat narsalarning uzaro ta'sir va munosabatlari jarayonida uzini namoyon etadi. Xossa xususiyatni bilishda pog'ona bo'lib xizmat qiladi. Xususiyat barcha narsaga tegishli bulib, uziga xos va umumiy, asosiy va asosiy bulmagan, zaruriy va tasodifiy, tabiiy va sun'iy va sh.k. xossalarga ajratiladi. Xususiyat narsalarning ichki mohiyatini belgilab, inson ongiga bog'lik bo'lmagan holda mavjud. Har

<sup>6</sup> www.ziyouz.com кутубхонаси 65

<sup>7</sup> Азим Ҳожиёв. Ўзбек тили грамматикаси, 1-ж., Морфология, Т., 1975; Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм, Т., 1980.

qanday xususiyat nisbiydir. Narsa va hodisalar xususiyatlarini o‘rganish ularning sifatini bilishda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>8</sup>

Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda R.Kettelning “Shaxs xususiyatlarini o‘rganish” testidan, “Tashvish va xavotirlik darajasini ulchash” savolnomasidan, “Shaxsning muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatleri” testidan foydalandik.

R.Kettelning “Shaxs xususiyatlarini o‘rganish” testida shaxsga xos bo‘lgan 16 omil xususiyatlari aniqlanadi.

“Shaxsning muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatleri” testi orqali o‘quvchi–yoshlarni muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatlarini aniqlashdagi muhim test hisoblanadi. Adabiyotlarda shaxsning muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatlarini aniqlashga mo‘ljallangan bir qator testlar mavjud. Biz esa, “Shaxsning muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati” sifatlarini aniqlash uchun mo‘ljallangan test savolnomasining 1997 yilda T.M.Adizova tomonidan rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, milliy muhitga moslashtirilib qayta ishlab chiqilgan variantidan foydalandik.

“O‘smirlarda tashvish va xavotirlanish darajasni aniqlash” so‘rovnomasi Shoumarov G‘.B. hamda Haydarov I.O.lar tmonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu so‘rovnoma orqali o‘smirlardagi tashvishlanish va xavotirlik darajasi o‘rganiladi. Savolnoma mehribonlik va oilada tarbiyalangan bolalar va o‘smirlarda o‘rganildi.

### **Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.**

Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy manblar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, xorij va hamdo‘stlik mamlakatlarida shu jumladan O‘zbekistonda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxs, individual-psixologik, aqliy taraqqiyot xususiyatlari, axloqiy xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsada, Ammo mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari alohida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Buning sababi birinchidan, bu sohadagi mutaxassislarning yetarli

---

<sup>8</sup> Ad.: Наршахий, Бухоро тарихи, Т.,1966.

emasligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar respublikamizning ijtimoiy, etnik hamda mintaqaviy xususiyatlarimizga mos kelmasligi va bu sohada ilmiy izlanish modelini rishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

## **II. BOB. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini empirik o'rganish natijalari**

### **2.1. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsi xususiyatlarining shaxslararo munosabatlardagi o'rni**

Tadqiqotimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining individual-psixologik shaxs xususiyatlarining shaxslararo munosabatlariga ta'siri masalasini o'rganish maqsadida V.Shparning shaxs xususiyatlarini o'rganish bo'yicha 16 omilli metodikasidan foydalandik.

Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridagi sovuqqon muloqot odamlarga kirishuvchanlikning yo'qligi boshqa shaxs xususiyatlariga ko'ra ancha yuqori darajani ko'rsatdi. Shuningdek, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida muloqotda tabiiylik, odamlarga e'tiborli, mehribon, kirishimli, hamkorlikka tayyorlik xususiyatlari ham ancha past ko'rsatgichni namoyon qildi. Bunday xususiyatlarning jins toifasi bo'yicha namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra yuqoridagi xususiyatlar qiz bolalarda, o'g'il bolalarga nisbatan biroz yuqoriligi kuzatildi. Oilada tarbiyalanayotgan bolalarda esa bunday xususiyatlar mehribonlik uyida tarbiyalanayotganlarga nisbatan ancha ijobiy ko'rinishni namoyon qildi. Zo'riqish, stress holatlari xususiyatiga ko'ra ham mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan qiz va o'g'il bolalarda oilada tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatgichni namoyon qildi (14,3%). Bundan xulosa chiqarish mumkinki, mehribonlik uyida qanchalik zaruriy shart-sharoit yaratib berilmasin, bolalarning ota-onalari, yaqinlari bag'rida bo'lishi psixologik jihatdan qoniqishni hosil qilar ekan. Bu o'z navbatida bolalar shaxsiga

xos bo'lgan yuqoridagi ko'rsatgichning namoyon bo'lishiga sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida muayyan faoliyatlarda ikkilanish, ikki xil fikr birligi, aniq yo'nalish ola bilish xususiyati yaxshi shakllanmaganligi holati ham kuzatildi.

Tashqi voqelikni his qilish xususiyatlari, (sensorlik darajasi past) ruhiy va fiziologik zo'riqlarga chidamlilik darajasi past — introvertlik shaxs xususiyati mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida oilada tarbiyalanuvchilarga nisbatan biroz yuqoriligi ko'zga tashlandi.

Tafakkur xususiyatlarni o'rganish natijalariga ko'ra ularda asosli xulosalar chiqarishga moyillikning yetishmasligi, xolis fikrlashdan yiroqlik, primitiv tafakkur xususiyatlari kuzatildi (6.2%). Bu o'z navbatida ularning shaxslararo munosabatlarga kirishishlariga va shaxslararo munosabatlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishlariga to'sqinlik qilganligi ko'zga tashlandi. Qolaversa, ulardagi bunday xususiyatlar shaxslararo munosabatlarga kirishishlarida o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqarganligi kuzatildi. Shuning uchun ham bunday xususiyatga ega bo'lgan bolalar o'rtoqlari yoki tarbiyalanuvchilar bilan kirishib ketisha olmaydilar. Buning natijasida ularda eng yaqin, sirdosh o'rtoqlari safi kam ekanligi ko'zga tashlandi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida xavfli vaziyatlardan qo'rqmaslik, og'ir, bosliqlik, realistik fikrlaydiganlar, xulqi barqaror, hissiy turg'unlik darajasi yuqori va asab tizimi kuchlilar ham uchraydi. Bundaylar shaxslararo munosabatlarga kirishishda qiyinchiliklarga uchramaydi. Shuning uchun ham bundaylarning o'rtoqlari davrasi keng, yaqin kishilari, sirdoshlari ko'p ekanligi kuzatildi. Bunday xususiyatlarning jins tofayvutlari bo'yicha ifodalanishiga ko'ra o'g'il bolalarda nisbatan ancha yuqoriligi kuzatildi.

Oilada tarbiyalanayotgan bolalarda esa xavfli vaziyatlardan qo'rqmaslik, og'ir, bosliqlik, realistik fikrlaydiganlar, xulqi barqaror, hissiy turg'unlik darajasi yuqori va asab tizimi kuchlilik xususiyati ancha yuqoriligi kuzatildi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida hissiy omillarga tolerantligi past, o'ziga ishonmaydigan, tez hayajonlanish asabiylikka moyillik, asab tizimi kuchsizlar ham ko'pchilikni tashkil qildi. Bundaylarning faoliyatlarini tahlil qilganimizda ularning shaxslararo munosabatlarida kelishmovchilik, tortishuvlar ko'p kuzatilishi ko'zga tashlandi. Tabiiyki, ular o'rtoqlari davrasida yakkalanib qolish, o'z yaqinlari va sirdoshlariga ega bo'lmaslik holatlariga boshqalarga qaraganda ko'proq duch kelishadi.

Sinaluvchilardagi bunday xususiyatlarning yuqoriligini metodikaning 12 chi tashvish-xavotirlanish darajasini aniqlash omili bo'yicha olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Bunga ko'ra sinaluvchilarda tashvish-xavotirlik darajasi oilada tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan ancha yuqoridir (12,2%).

Shaxs faolligi, keragidan ortiq o'ziga ishonuvchanlik, o'z-o'zi uchun qonun, boshqaruvchilik xususiyatiga ega, nizoli vaziyatlarda boshqalarni ayblaydigan, talabchanlik fazilatlarini yuqori bo'lgan bolalar ham ancha yuqori ko'satgichni egalladi (5,4%).

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, sinaluvchilarda boshqalarga bo'ysunuvchan, o'z fikri va taklif - talablarini ochiq ayta olmaydigan, o'ta xijolatlilik holatlari ham uchraydi. Bundaylar ko'pincha, itoatkor va bo'ysunuvchanliklari tufayli boshqalar nima desa unga qo'shib ketadilar. Shuning uchun ham ular o'rtoqlari davrasida muqarrar o'z o'rinlariga ega emasliklari kuzatildi.

Sinaluvchilar shaxsiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri sifatida qabul qilgan qarorlarini anglab yetishlik, maqsadga erishishda qat'iyat, javobgarlik hissining yuqoriligi va mavjud qadriyatlar, o'rnatilgan tartibda harakatlanishni ma'qul deb biladigan, prinsipiiallikning yetishmasligi yaqqol ko'zga tashlandi. Ulardagi bunday xususiyatlarni tahlil qilib ko'rganimizda bu ularning kelajakdagi mustaqil hayotlariga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkinligining guvohi bo'ldik.

Oilada tarbiyalanayotgan bolalarda esa bunday sifatlar ancha yuqori darajani ko'rsatdi. Tabiiyki, bunday xususiyatlar bolalarning mustaqil hayotda o'z maqsad va niyatlariga erishish yo'lida harakat qilishlariga turtki bo'lib xizmat

qiladi. Ushbulardan kelib chiqib, ta'kidlash lozimki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida maqsadga erishishda qat'iyatlilik, javobgarlik hissining yuqoriligi va mavjud qadriyatlar, o'rnatilgan tartibda harakatlanishni ma'qul deb bilishlik, prinsipiiallik xislatlarini rivojlantirish zarurdir.

Sinaluvchilardagi mardlik, jasurlik darajasi boshqa shaxs xususiyatlariga nisbatan ancha yuqoriligi ko'zga tashlandi (6,4%). Nazarimizda ularda bunday xislatlarning yuqoriligiga ularning bir jamoa bo'lib yashashligi, muassasa pedagoglari va tarbiyachilarining ijobiy ta'sir ko'rsata olayotganliklariga bog'liq bo'lsa kerak.

Sinaluvchilarda juda xijolatlilik, o'ta ehtiyotkorlik, soyada yurishni ma'qul deb hisoblaydigan, jamoada o'ziga yaqin kichik guruhlarini ma'qul ko'radiganlik holati ham ancha yuqori darajani egalladi (3.6%).

Himoya ostida bo'lishni istaydigan, xayolparast, yuvvosh, nozik vaziyatlarda tajribasiz, tajriba orttirishga moyillikning yo'qligi holati ham sinaluvchilarda kuzatildi (14,3%). Nazarimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida bunday xususiyatlar darajasining yuqoriligi ota-onalarining yo'qligi, xar bir faoliyatlaridan, kelajakdagi hayotlaridan hadiksirash, qo'rquv hissining yuqoriligi kabilarga bog'liq bo'lsa kerak. Buni testning ishonuvchanlik darajasini aniqlovchi omili ko'rsatgichlari ham isbotlab turibdi. Bunga ko'ra sinaluvchilarda o'ta xavotirlanishga moyil, hech kimga ishonmaydigan, qiziqishlar doirasi o'ziga yo'naltirilganlik darajasi ancha yuqori ko'rsatgichni ifodaladi (12,2%).

Amaliylik darajasiga ko'ra sinaluvchilarda o'z dunyosi atrofida aylanib qolish, amaliy ishlarda yordamga muhtojlik, jamoadagi munosabatlari murakkab tusga egalik xususiyatlari darajasi ham ancha yuqori ko'rsatgichni ko'rsatdi (3.8%).

Metodikaning o'zini nazorat qilish darajasini o'rganish natijalariga ko'ra, tartibsizlik, intizom pastligi, o'z ichki dunyosi bilan kelisha olmaslik, o'zini nazorat qilish darajasining pastligi, o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya etmaslik, o'z hayajoni va hissiyotlariga beriluvchanlik xususiyatlari yorqin namoyon bo'ldi

(2,5%). Bunday xususiyatlar darajasining yuqoriligi mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilar bilan bu sohada keng miqyosda amaliy ishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

2.1.1-jadval

***Shaxs xususiyatlari darajasining namoyon bo‘lish ko‘rsatgichlari***  
***(Foiz hisobida)***

№	Shaxs xususiyatlari darajasi	Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida		Oilada tarbiyalanuvchilarda	
		O‘g‘il bolalar da	Qiz bolalar da	O‘g‘il bolalar da	Qiz bolalar da
1	Shaxs xususiyatlari yo‘nalishi „A”	5,4	5,9	7,8	8,6
2	Tafakkur darajasi - diqqat xususiyatlari „V”	6,2	7,2	8,4	8,9
3	Hissiy turg‘unlik darajasi „S”	4,2	4,8	9,6	10,2
4	Mustaqillik darajasi „Ye”	8,2	6,2	7,4	6,4
5	Fikrlash darajasi „G”	5,2	5,9	6,9	7,2
6	“Men”ning namoyon bo‘lish darajasi „S”	8,0	8,4	6,2	6,8
7	Mardlik darajasi „N”	6,4	4,2	7,0	4,0
8	Qattiqqo‘llik darajasi “J”	5,3	3,4	5,1	3,1
9	Ishonuvchanlik darajasi „L”	3,6	5,3	3,2	4,4
10	Amaliylik darajasi „M”	3,8	3,7	4,7	3,5
11	Vaziyatga yondashish darajasi „N”	2,1	2,0	4,3	3,9
12	Tashvish xavotir darajasi “O”	12,2	11,5	7,5	6,2
13	Radikallik darajasi “Q <sub>1</sub> ”	2,2	3,0	4,2	4,0
14	Ta’sirchanlik darajasi „Q <sub>2</sub> ”	10,4	10,4	7,1	5,3
15	O‘zini nazorat qilish darajasi “Q <sub>3</sub> ”	2,5	3,7	4,6	5,8

16	Zo'riqish drajasi „Q <sub>4</sub> “	14,3	12,8	6,3	4,3
----	-------------------------------------	------	------	-----	-----

Yuqorida bayon etilganlarga asosan xulosa qilish mumkinki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida hissiy noturg'unlik, hadixsirash va tashvishlanish, asabiylik, ijtimoiy tartib va qoidlarga bo'ysunmaslik, o'zini nazorat qilish darajasining pastligi holatlari ancha yuqori darajani ko'rsatdi. Bu o'z navbatida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxslararo munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatganligining guvohi bo'ldik. Oilada tarbiyalanayotgan bollarda esa bunday sifatlar sezilarli darajada ifodalanmadi. Shuning uchun ham ulardagi shaxslararo munosabatlarning ijobiylik darajasi ancha yuqoridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsiga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar ularning shaxslararo munosabatlar tizimiga, uning samaradorlik darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

## **2.2. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsidagi tashvish va nevroitiklik holatining shaxslararo munosabatlarga ta'siri**

Tadqiqotimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tashvishlanish va ortiqcha nevroitiklik darajasini o'rganish maqsadida V. L. Marishchukning "Tashvishlanish va nevroitiklik sathini o'lchash" testidan foydalandik. Bu test orqali 20 nafar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va 20 nafar oilada tarbiyalanuvchi bolalar o'rganib chiqildi.

Tadqiqotdan olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining 74,7 foizida yuqori darajali tashvishlanish va nevroitiklik sathi mavjud ekan. 13,8 foizida o'rtacha ko'rsatgich, 11,5 % da esa TNS deyarli mavjud emas yoki past darajani ko'satdi.

Biz har bir diagnostik tadqiqot natijasidan olingan ma'lumotlarni doimiy ravishda oilada tarbiyalanuvchi o'smirlar bilan qiyosiy tahlil qilib bordik. Mazkur testdan olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilib ko'rganimizda oilada tarbiyalangan

o'smirlarda TNS mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga nisbatan ancha past ekanligi kuzatildi. Ya'ni, oilada tarbiyalangan o'smirlarda TNS 40,2 % ni, o'rtacha ko'rsatgich 3,5 % ni, TNS past darajasi esa 25,3 % ni tashkil qildi.

TNS testidan olingan natijalarni mustahkamlash maqsadida o'smir yoshidagi tarbiyalanuvchilarning shaxsiy hujjatlari, mehribonlik uyiga kelib tushish tarixi, pedagog va tarbiyachilarning bolalar haqida bergan ma'lumotlari o'rganib chiqildi va quyidagi xulosalarga kelindi. TNS darajasi yuqori bo'lgan bolalarning ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy sharoiti o'rganib chiqilganda, ota - onalarning kundalik hayot meyorlariga amal qilmasliklari, ichkilikbozlik, giyohvandlik va oilada kelishmovchiliklarning tez - tez bo'lib turishi bola ruhiy rivojlanishida TNSning yuqori darajada bo'lishini ta'minlovchi asosiy omillardan ekanligi aniqlandi.

O'rtacha TNS mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida 13,8 foizni tashkil qildi. Bunday bolalarning ijtimoiy kelib chiqishi o'rganilganda, ota-onaning o'limi yoki ikkalasidan birining bo'lmasligi, nogiron oilalarda tarbiyalangan bolalar ekanligi aniqlandi.

TNS darajasi past ko'rsatgich sinaluvchilarda 11,5 % ni tashkil qildi. Bunday bolalarning ijtimoiy ahvoli bilan tanishib chiqqanimizda, ajralgan oilalarning bolalari, ota-onalari ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, tashlab ketilgan bolalar ekanligi ayon bo'ldi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridan olingan natijalarni oilada tarbiyalanuvchi bolalardan olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Bunga ko'ra oilada tarbiyalangan bolalarda TNS mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarga nisbatan ancha kam foizni tashkil qildi.

Yuqori TNSga moyil bo'lgan bolalarning shaxs xususiyatlari o'rganilganda ularning ko'pchiligi o'zidagi o'tish davridagi inqirozli psixofiziologik o'zgarishlar hamda ayrim o'smirlarda kuzatilgan somatik kasalliklar TNSning yuqori darajada bo'lishiga sabab bo'lganligi aniqlandi.

Oilada tarbiyalanuvchi bolalarda TNSning o'rtacha sathi umumiy bolalar sonining 34,5 % ni tashkil qildi. Bu bolalarning ijtimoiy ahvoli va shaxs

xususiyatlari o'rganib chiqilganda, ayrim hollarda ularda tashvishlanish, hadiksirash va psixik taranglik holatlari bo'lib turishi aniqlandi. Bu esa o'z navbatida o'tish davrining xos xususiyatlaridan biri bilan bog'liqdir.

TNS ning past darajada ekanligi oilada tarbiyanuvchi bolalar sonining 25, 3 % ni tashkil qiladi. Bunday bolalarning shaxs xususiyatlari va ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'rganib chiqilganda, oilaviy sharoiti har tomonlama ta'minlangan hamda bu sohada hech qanday salbiy ta'sirlarni o'z boshlaridan kechirmaganliklari ayon bo'ldi. Bu bolalarning yoshliklari tashvishsiz, bir maromda ijobiy tarzda kechganligidan dalolat beradi.

1-jadval

***Har ikkala sharoitda tarbiyalangan bolalarning TNS natijalari ko'rsatgichi***

№	TNS darajalari	Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar		Oilada tarbiyalanuvchilar	
		Ball	%	Ball	%
1	Yuqori TNS	40-75	74,7	40- 75	40,2
2	O'rtacha TNS	30-40	13,8	30- 40	34,5
3	Past TNS	25-30	11,5	25-30	25,3
	JAMI		100%		100%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, har ikkala muhitda tarbiyalangan bolalarda TNS ko'rsatgichlari bir-biridan keskin farq qiladi.

1-jadvaldan ko'rinadiki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida TNS ning o'sish foizi oilada tarbiyalanuvchilarga nisbatan ancha yuqori, ya'ni 74,7 % ni tashkil qildi. Oraliq o'rta TNS bilan yuqori TNS orasidagi farq 60,9 % ni tashkil qilib, o'rtacha TNSdan yuqoriga qarab masofaga uzoqlashib ketganligi kuzatiladi.

Yuqorida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Kettel metodikasining 11 ta omillari A, V, S, D, T, N, Q , Q<sub>1</sub> Q<sub>2</sub> Q<sub>3</sub> Q<sub>4</sub> ijobiy xarakterlar bilan TNS metodikasining 2, 4, 6, 8, 10, 12, 17, 20, 22, 24, 25 ijobiy savollar bilan o'zaro korrelyatsiyaga kirishadi. Bu esa o'z navbatida ijobiy xarakter xislatlariga ega bo'lgan bolalarda tashvish va nevrotiklik sathi past bo'lar ekan, yoki TNS umuman uchramasligi bir qator ijobiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi.

### **2.3. Mehrimonlik uyi tarbiyalanuvchilarida muloqotga kirishimlilik darajasining ifodalanishi**

Muomalaning o‘zaro birgalikdagi harakati natijasida suhbatdoshlarning bir-birini o‘zaro idrok etishi yuzaga chiqadi. O‘zaro birgalikda harakat qila boshlaydigan odamlar o‘zaro hamjihatlik darajasini baholab oladigan va muomalaga kirishgan sherigining, ya’ni suhbatdoshining kimligi haqida o‘ziga hisob bera oladigan bo‘lsagina, muomala yuzaga kelishi mumkin. Muomala ishtirokchilari o‘z ongida bir-birlarining ichki dunyosini qayta tiklashga (asli holda aks ettirishga) his-tuyg‘ularini, hulq-atvorini faxmlab yetishga harakat qiladi.

Taniqli sobiq ittifoq psixologi S.L.Rubinshteyn – o‘z izlanishlaridan birida “Kundalik hayotda odamlar bilan muomalaga kirishar ekanmiz, biz ularning hulq-atvoriga qarab mo‘ljalga olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma’lumotlari mohiyatini go‘yo “uqub”, ya’ni mag‘zini chaqib chiqamiz va shu yo‘sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo‘lgan mazmunini aniqlaymiz. Bunday “uquv” naridan-beri tez yuz beradi. Chunki tevarak-atrofdagilar bilan muomala jarayonida bizda muayyan darajada ularning xulq-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma’no hosil bo‘ladi», deb ta’riflaydi. Shu nuqtai-nazarga tayangan holda aytish mumkinki, shaxsning egotsentrik yo‘nalishlari, muloqotchanlik va tashkilotchilik qobiliyatlari, shaxsning o‘z atrofida qilargalarga nisbatan shaxslararo munosabatlari, ota-onalar munosabati turlari va tarbiya nuqsonlari testi omillarining imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqliklarini o‘rganish borasida shaxsning rivojlanishi va shakllanishi jarayonida o‘zining salmoqli o‘ringa ega ekanligini aniqlashga erishildi.

O‘smir o‘g‘il bolalarning muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyatining sifat ko‘rsatgichi “Ye”-kam talabchanlik, “T”-haddan tashqari qattiqqo‘llik, “K”-tarbiyachilar uni jazolamaslikka intilishadi, “F”-ayollarga nisbatan hurmatsizlikning rivojlanganlik xususiyatlarida namoyon bo‘ldi.

Buning mazmuni shundan iboratki, tarbiyachilar munosabatining turlari va tarbiyalash jarayonidagi nuqsonli omillarni qo'llashga bo'lgan ehtiyojining ortgani sari, o'smirlardagi muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati va shaxsning o'z atrofida qilargalarga nisbatan o'zaro munosabatga kirishishining sifat ko'rsatgichi kamayib boraveradi. Ularni kichik omadsiz, deb hisoblab, tashkiliy ishlarda ularning tashabbusini qo'llab-quvvatlamasdan, rag'batlantirmasdan haddan tashqari qattiqqo'llik qilishlari, o'zaro munosabatni qo'rqituv asosida qurishlari yoki, aksincha, ularni jazolamaslikka intilishlari, hamma narsa uchun kechirishlari, ya'ni tarbiyachilarning bola tarbiyasiga qat'iyatsizlik bilan qarashlari, o'zgaruvchan tarbiyani qo'llashlari, o'zini tarbiyalanuvchining oldida qanday tutishni bilmasdan, balki, tarbiyalanuvchining xohishi bilan ish tutishlari, u nimani xohlasa, shularni so'zsiz bajarishlari va ayollarni hurmat qilishga o'rgatilmagan kabi munosabatlarning qo'llanilishidagi ta'siri natijasida tarbiyalanuvchilarda o'ziga ishonchsizlik, o'zini haddan tashqari sevuvchanlik, yoki, aksincha o'zini yoqtirmaslik, qabul qilaolmaslik, ba'zida o'zini dunyoga kelganidan g'azablanish va nafratlanish, norozi bo'lish, qaysarlik, o'jarlik, xudbinlik, ya'ni egoistlik, berahmlik kabi shaxs xususiyatlari va muloqot sifatlarining salbiy shakllanishiga sabab bo'ladi.

2.3.1-jadval

*Muloqotga kirishimlilik sifatlarining namoyon bo'lishi*

№	Pedagog-tarbiyachilarning munosabat turlari	Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida		Oilada tarbiyalanuvchilarda	
		O'g'il bolalar	Qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar
1	Simbioz yoki bola bilan muomalada uzviy bog'liqlik.	12,7	11,7	15,6	14,6
2	Avtoritar yoki johillik	13,4	10,4	13,3	12,3
3	Kichik omadsiz.	12,5	10,5	8,8	10,8

4	Haddan tashqari g'amxo'rlik qilishadi	7,4	3,4	9,6	8,6
5	Hamma narsaga ruhsat berishadi	5,4	8,4	9,4	10,4
6	Hayotining yagona mazmuni bola	7,8	6,8	10,8	11,8
7	Yoqimsiz, kutilmagan bola.	9,6	8,7	7,4	8,4
8	Zolimlik-bolanng shaxsiy "men"iga haqqi yo'q	10,8	9,8	6,8	7,8
9	Erkaklarni hurmat qilishga o'rgatilmagan	9,9	7,9	7,9	7,9
10	Ayollarga nisbatan hurmatsizlik rivojlangan	10,4	11,4	10,2	11,2

O'rganilgan o'smir qizlarning muloqotga kirishimlilik darajasi o'smirlik yoshi davridagi bolalarga xos deb, hisoblansa bo'ladi. Chunki o'smir qizlarning o'z atrofida gilar nisbatan shaxslararo munosabatda bo'lishlari jarayonida, ya'ni atrofida gilar bilan o'zaro muloqotga kirishish paytida, ularga nisbatan ichiga murojaat qilish, ya'ni introvertlanganlik xususiyatlarini ishga soladigan bo'lib shakllanishadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, muomala va muloqot shunchaki axborotni yetkazish bilangina cheklanib qolishi mumkin emas. Aksincha, u muvaffaqiyatli tarzda yuz berishi uchun muqarrar teskari aloqaning mavjud bo'lishini subekt tomonidan o'zaro birgalikda harakat natijalari haqida ma'lumot olib turilishini taqazo etadi.

Shuningdek, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining muloqotga kirishimlilik darajalarining sifat ko'rsatgichi bilan tarbiyachilar munosabatining "II"-kooperatsiya yoki birlashma turi hamda tarbiya nuqsonlari testining "YE"-kam talabchanlik kabi omillarining sifat ko'rsatgichi o'rtasida ham ishonch darajasidagi manfiy munosabat mavjudligi aniqlandi. Tarbiyachilar tomonidan olib borilgan tarbiyadagi nuqsonlar sifat ko'rsatgichining ortishi bilan o'smirlardagi muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyatini o'zida shakllantirishga bo'lgan intilish

ehtiyojining ehtimolidagi sifat ko'rsatgichi kamayadi. Boshqacha qilib aytganda, muloqotga kirishimlilik qobiliyati sifatlarini o'zida shakllantirishga bo'lgan ishtiyoqmandlik imkoniyati baland o'smir, tarbiyachi tomonidan ijtimoiy munosabat jarayonida qo'llanilgan sovuqqonlik va qo'polliklarining bo'lishi natijasida, ya'ni haddan tashqari yuqori baho berib yuborishlari, har bir arzimagan narsaga ham uni maqtayverishlari va ko'p rag'batlantirishlari, ijodiy va aqliy qobiliyatlariga juda yuqori yoki aksincha, juda past baho berishlari, u bilan faxrlanishlari, haddan tashqari farzandiga ishonishlari yoki ularni o'z holiga tashlab qo'yishlari, qarovsiz qoldirishlari va munozarali masalalarda ko'proq ularni fikrini ma'qullamasliklari natijasida farzandlarida ota-onalari bilan o'zaro munosabatga kirishishdan o'zlarini olib qochish hollari kuzatiladi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati sifatleri tarbiyachilarning "A", haddan tashqari g'amxo'rlik qilish, "D", qattiq talabchanlik, "K", tarbiyachilar ularni jazolamaslikka intilishadi, "L", o'zgaruvchan tarbiya, tarbiyachi yoki pedagogning kayfiyatiga bog'liq bo'lgan omillari bilan Tashkilotchilik qobiliyati, "R"-yoqimsiz kutilmagan bola va "F"-ayollarga nisbatan hurmatsizlikning rivojlanganligi bolalarda muloqotga kirishimlilik qobiliyatining u yoki bu darajada namoyon bo'lishiga sabab bo'lishligi aniqlandi. Bu kabi statistik munosabatni shunday tushunish kerakki, pedagog yoki tarbiyachilar bolalarini o'ziga bo'ysundirishga harakat qilib, bolalarini o'zlariga nisbatan nazorat nazariyalarini ikkilamchilik, qo'pollik omillarini ba'zan ochiq tarzda g'azablarini ifodalay olishlarining natijasidir; bolalar tarbiyachilarga bo'ysungan holda ham, bari-bir ularning eng qimmatli xislatlari, ya'ni mustaqillik g'ururi, o'ziga va o'z kuchiga ishonch tuyg'ulari ham singdiriladi, desak to'g'ri bo'ladi. Demak, o'smirlarga nisbatan qanchalar noto'g'ri tarbiya berilsa, ularning shaxs xususiyatlari va muloqot sifatlarining etnopsixologik tomonlari shunchalik nuqsonli bo'lib shakllanadi.

O'g'il bolalarning egotsentrik yo'nalishi bilan tashkilotchilik qobiliyatining sifat ko'rsatgichi o'rtasida farqli o'laroq darajadagi manfiy munosabatning mavjudligi kuzatildi. Yoki, o'g'il bolalarning egotsentrik yo'nalishlarining sifat ko'rsatgichi bilan "Z"-hissiy aloqani kuchli bildirish, "YE"-kam talabchanlik va "P"-bolaning sog'ligi

uchun kuchli qayg'urish. Demak, tarbiyachilar tomonidan kam talabchanlik, hissiy aloqani kuchli bildirish va bolaning sog'ligi uchun kuchli qayg'urish kabi omillari ijobiy qo'llanilgan bo'lsa, ularning tarbiyalanuvchilar shaxsida shakllangan egotsentrik yo'nalishning sifat ko'rsatgichi ham ijobiy bo'ladi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining pedagog yoki tarbiyachilari munosabatining "Avtoritar yoki, qattiqqo'llik, talabchanlik" kabi turi bilan o'smirlarning egotsentrik yo'nalishlari o'rtasida o'zaro manfiy korrelyatsiya bog'lanishlarning mavjudligi kuzatiladi.

Bu ko'rsatgich shundan darak beradiki, tarbiyachilar tomonidan nazoratning katta bosimda berilishi, talabchanlikning yuqori darajada bildirilishi ularning farzandlaridagi egotsentrizm darajalarini pasayib ketishiga olib keladi.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, oiladagi psixologik iqlim sharoitining turlicha ko'rinishga ega bo'lishi, tarbiyalanuvchilarning shaxs xususiyatlari va muloqot sifatlarida turlicha shakllanishni yuzaga keltiradi: qo'pollik, sovuqqonlik, haqoratlashlaru, baqir-chaqirlarning doimiy bo'lib turishi, janjallarni kundalik hayoti davomida ko'rib turgan har qanday bolada ham albatta, shu voqea-hodisalarni o'z shaxsiga singdirib olishga, ularga taqlid qilishga hamda moslashishga intilish ehtiyojlari oshib boradi. Bunday munosabatlar ta'siri ostida o'sib-ulg'ayib kelayotgan har qanday o'smirning muloqot sifatlarida shaxsida ham atrofida gilar bilan o'zaro muloqot va munosabatga kirishish jarayonida xuddi shu tarbiyachilar kabi ularning xatti-harakatlarini takrorlaydilar, ya'ni ularga taqlid qiladilar. Natijada, ular bu kabi muloqot sifatlarini va shaxslararo munosabatlarni o'zlariga doimiy odatiy tusga aylantirib oladilar va hayoti davomida o'z niyatlari va rejalarini amalga oshirish maqsadida qo'llashga harakat qiladigan bo'lishadi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyatining sifat ko'rsatgichi bilan tarbiyachilar munosabatining "qabul-qilish" turi va «tarbiyadagi yo'l qo'yilgan xatoliklar kabi omillarining sifat ko'rsatgichi orasida ham ishonch darajasidagi, lekin musbat aloqaning mavjudligi kuzatildi. Bu ma'lumotlar shundan darak beradiki, bolalar uyida tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarga mehr bilan tushuntirishi, uqtirishi va iltimos qilishga asoslangan

demokratik asosga qurilgan aloqalarning qo'llashi natijasida o'smirlarning shaxs xususiyatlari va muloqot sifatleri, ya'ni o'ziga ishonch, o'z fikrini samimiy yetkazishga ega bo'lish, ulardagi o'z-o'zini to'g'ri anglash va eng kuchli ezgu-niyatlarini yetkaza olish kabi muloqot sifatlarini shakllantirishga bo'lgan intilishlarini faollashtiradi. Shu bilan birga, tarbiyachilarning do'stona munosabati bolalar shaxsining shakllanishi, ya'ni kattalarni hurmat qilish va kichiklarga izzatda bo'lish fazilatlarini shakllantiradi. Biz olib borgan tadqiqot jarayonida o'smirlarning muloqotga kirishimlilik, egotsentrik yo'nalishlari, asabiylashish, qo'pollik, sovuqqonlik, tajovuzkorlik, qattiqqo'llik, talabchanlik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, kichiklarga nisbatan berahmlik kabi o'zaro munosabatlari o'rtasidagi «tafovutlar» yoki «ajralishlar» yuzaga kelishi tabiiy hol bo'lib, buning oqibatida o'smirlarning shaxs xususiyatlari va muloqot sifatlarining etnopsixologik jihatlari goh "o'z ketidan yetaklasa", goh teskarisining yuz berish hollari kuzatiladi.

### **Bob bo'yicha xulosa**

Tadqiqotimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxs xususiyatlari va muloqotga kirishimlilik darajalarini o'rganish natijalari quyidagi xulosalrni keltirib chiqardi:

1. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsiga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar jumladan, Aqliy taraqqiyot va tafakkur xususiyatlari, mustaqil fikr yurituvchanlik, amaliylik, o'zini nazorat qilish kabi xususiyatlar ularning shaxslararo munosabatlari muvaffaqiyatiga, o'z ta'sirini ko'rsatadi.

2. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsidagi tashvishlanish va xavotirlik darajasining yuqoriligi shaxslararo munosabatlar doirasiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tashvishlanish darajasi yuqori darajaga ega bo'lgan holatlarda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'zaro shaxslararo munosabatlarida nizoli vaziyatlar, kelishmovchiliklar yuzaga kelar ekan.

3. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsiga xos bo'lgan muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati o'zaro shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan.

### **III.BOB. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining xulq-atvor va axloqiy xususiyatlarining shaxslararo munosabatlarga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususitlari**

#### **3.1. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari yosh va xulq-atvor xususiyatlarining shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatiga ta'siri.**

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, shaxsning yosh davri va xulq-atvor hamda axloqiy sifatlari o'zaro shaxslararo munosabatlarda o'ziga xos o'rin tutadi. Shu maqsadda tadqiqotimizda yosh davri xususiyatlari va xulq-atvor hamda axloqiy sifatlari to'g'risida fikr mulohaza yuritishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ma'lumki, har bir yosh davri rivojlanish xususiyatiga ko'ra, muayyan talablar, shart-sharoitlar, o'ziga xos o'zgarishlar, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan munosabati, bilish jarayoni va tafakkur xususiyatining rivojlanish darajasi va shu kabi bir qator psixo-fiziologik rivojlanish xususiyatlari majmuasi bilan xarakterlanadi.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, o'smirlik yoshi davri shaxs sifatida intensiv rivojlanish davri bo'lib, bu yoshda ma'naviy va intellektual jihatdan o'sish jarayoni kuchayadi. O'smir psixik faoliyatida keskin o'zgarishlar yuzaga keladi. Xullas bu yoshda organizmning mukammallashuvi va qayta shakllanish jarayoni amalga oshadi. O'smirlik yoshini ba'zan o'tish davri ham deb ataydilar. Bunday deb atalishi tabiiy albatta. Chunki bu yoshda o'smir bolalikdan o'smirlikka, quyi rivojlanish pog'onasidan yetuklik bosqichiga o'ta boshlaydi. Bu yoshda u bolalik dunyosini tark etadi. Ammo u hali katta kishi bo'lganicha yo'q. Shuning uchun ham uning xulqida ba'zan qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, noturg'unliklar uchray turadi.

O'smirlik yoshi davrining psixologik xususiyatlari fanda o'smirlik yoshi davri xususiyatlari «kompleksi» yoki xulq og'ishi darajasiga ko'ra, pubertat yoshi davri «inqirozi» deb ataladi.

O'smirlik yoshi davri xususiyatlari kompleksiga o'smir kayfiyatining ba'zan juda kuchli ko'tarilishi, ba'zan esa arzimas sabablarga ko'ra, tushib ketishi singari

vaziyatli psixologik o'zgarishlar, atrofdagilarning o'smir tashqi ko'rinishiga, qobiliyatiga bergan bahosiga nisbatan o'ta ta'sirlanuvchanlik, uyatchanlik, tortinchoqlik, boshqalar tomonidan o'zining tan olishligini va mustaqilligini namoyon qilishga intilish, katta bo'lganlikni his etish, muayyan predmet yoki voqea-hodisalarga nisbatan haddan ortiq berilish va shu kabilar kiradi.

O'smirlik yoshida o'z xudbinligi, atrofdagilarga befarqligi, oilaviy o'zaro munosabatlardagi disgarmoniya, shaxslararo subordinatsiyaning buzilishi, o'z diqqatini o'quv predmetlariga to'play olmaslik, o'qishga nisbatan qiziqishlarning so'nishi kabilar kuzatiladi.

O'smirlik yoshi eski qiziqishlarning buzilishi va yo'qotilishi hamda yangi biologik asosga ega qiziqishlarning vujudga kelishi davri hisoblanib, unda bir necha yorqin qiziqishlar mavjud bo'lib, ular dominant qiziqishlar deb ataladi. Ular quyidagilar:

- egotsentrik - o'z shaxsiga, kelajagiga qiziqish, ya'ni bugungi kuni emas, balki uzoqni ko'ra bilishga qaratilgan ustanovka;

- zo'r berish (harakatlilik) - qaysarlikka asoslangan irodaviy zo'riqish, ya'ni tarbiya usullariga qarshilik ko'rsatishdan iborat salbiy harakatlar, xayolparastlik, ya'ni o'smirning sarguzashtlarga boy, turli qahramonliklar ko'rsatishga intilishlari bilan bog'liq tavakkalchiligidan iborat.

O'smir shaxsida kuzatiladigan xususiyatlardan biri – «kattalik hissi» o'smirning o'zi haqida «endi kichkina emasman» tasavvurining shakllanishiga sabab bo'lib, uning qondirilmasligi atrofdagi kattalar bilan turli nizolarning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

O'smir shaxsidagi yangilanishlardan yana biri o'smir faoliyati va xulqini aniqlovchi o'zini o'zi baholash ehtiyoji bo'lib, uning qondirilmasligi o'smir – o'qituvchi munosabatlari doirasida «ma'naviy to'siq» vujudga kelishini ta'minlaydi va muayyan sharoitlarda «noadekvatlik affekti» ni kuchaytiradi.

O'smirning jamoada (sinfda, mahallada) o'zining aniq o'rniga ega bo'lishga intilishi ham mazkur yosh yangilanishlaridan biri bo'lib, uning qondirilmasligi o'smirida «men va guruh» munosabatlaridan «ko'cha» muhitini tanlash imkoniyati

uchun zamin yaratadi va o'qishdagi, sinf jamoasidagi, real hayotdagi barcha muvaffaqiyatsizliklar o'rnini qoplovchi «ulfatlar guruhi» ning a'zosiga aylantiradi va unda «yangicha faoliyat» boshlanadi.

Keyingi yillarda zamonaviy g'arb psixologiyasida (E. Erikson 1968) o'smirlik yoshi xususiyatlaridan biri sifatida «aynanlik», «o'xshashlik» inqirozi deb nomlanadigan ta'limot paydo bo'ldi. Bu ta'limotga ko'ra, «aynanlik» shaxsning individualligi, shaxs sifatida mavjudligi tushunchasini anglatadi. «Aynanlik» xususiyatining shakllanishini psixoanalitiklar bolalik «men»ining barham topishi ya'ni, kattalik «men» ining o'smir tomonidan anglanilishi hamda «mendan boshqa» tushunchalarning shakllanishi jarayoni bilan izohlaydilar.

O'smirlik yoshiga xos bo'lgan «avtoritet inqirozi» o'smirlarda «edip» kompleksi sifatida otaga qarshi protest (isyon) ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Ya'ni, otaning muomala munosabati, xatti-harakatlari o'smir tomonidan maqbul topilmay inkor etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, o'smir bu davrda nafaqat ota-ona, balki o'zidan katta boshqa kishilarga ham o'z e'tirozini bildira boshlaydi. Oilada ota mavqei ta'sirining pasayishi yoki umuman bo'lmasligi bu inkorni oilaning boshqa katta a'zolariga va atrofdagi kattalarga nisbatan ham namoyon bo'lishiga olib keladi. Ushbu inqiroz natijasi sifatida esa o'smir uydanda ketib qolish, daydilik qilish kabi holatlar paydo bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, «o'smirlik yoshi xususiyatlari kompleksi» shu yosh davriga xos bo'lgan muayyan psixologik xususiyatlar, xususan xulq-atvor modeli, o'ziga xos xulq-atvor reaksiyalari, atrof muhit voqea-hodisalariga nisbatan ta'sirchanlik hamda (A.YE.Lichko fikriga ko'ra) emansipatsiya reaksiyasi darajasining yuqoriligi, tengdoshlari bilan birlashishga intilish, muayyan narsalar yoki faoliyatga haddan ortiq darajada berilish, hirsiy moyillik reaksiyasi va boshqalardan iboratdir (39).

Tadqiqotchi M.I.Yenikeyevning ko'rsatishicha, bu yoshga xos bo'lgan bir qator xulq-atvor stereotiplari mavjuddir. Ular quyidagilardir:

1. Qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyasi, (reaksiya oppozitsi) ya'ni kattalarning xatti-hakatlari, gap so'zlariga nisbatan o'smirning kuchli qarshilik

ko'rsatishi, e'tiborsizlik hissining paydo bo'lishi. Bu reaksiya ko'pincha dars qoldirish, uydan ketib qolish, spirtli ichimlik ichib maqtanish va ba'zan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish holatlari orqali namoyon bo'ladi.

2. Taqlidchanlik reaksiyasi. Bu reaksiya muayyan obrazlarga, kishilarga taqlid qilish bilan kechadi. Bunda ba'zan o'smir kinoda ko'rgan yoki eshitgan g'ayriijtimoiy qahramonga taqlid qilishga harakat qiladi.

3. Salbiy taqlidchanlik reaksiyasi, ya'ni muayyan voqea-hodisalarga kishilar obrazlariga teskari taqlid qilishdir.

4. Kompensatsiya reaksiyasi. Bir faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlik, ikkinchi bir faoliyatning, masalan, g'ayriijtimoiy faoliyatning kuchayishiga olib keluvchi reaksiya. Jumladan, o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik jinoyatchilik xulqining rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

5. Gipperkompensatsiya reaksiyasi, ya'ni qandaydir ta'sirlanish yoki alam bilan biror bir faoliyatni egallashga bo'lgan kuchli intilishning namoyon bo'lishi reaksiyasi. Masalan, nimjon, birovlardan dakki eshitib yuradigan o'smirning sport bilan jiddiy shug'ullanishi va bunda muvaffaqiyatga erishishi.

6. Emansipatsiya reaksiyasi. Kattalarning nazorat va kuzatuvlaridan ozod bo'lishga va o'z mustaqilligini ko'rsatishga intilish hissi.

7. Guruhlanish reaksiyasi. Tengdoshlari bilan birlashishga intilish hissi.

8. Ishqibozlik reaksiyasi. O'smirning biror-bir faoliyatga, narsaga nisbatan bo'lgan ishqibozligi, masalan rok musiqasiga, texnikaga, antiqa - g'ayritabiiy kiyinishga va boshqalarga intilishi.

Tadqiqotimizda yosh davri xususiyatlarining mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari xulqining shakllanishiga ta'sir etishini o'rganish IPS, kuzatish, bolalar va o'smirlar faoliyatini o'rganish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, o'smirlik yoshiga xos bo'lgan emansipatsiya xususiyati, ya'ni kattalarning, xususan yaqinlarining va o'qituvchilarning qaramog'idan, nazoratidan, g'amxo'rligidan ozod bo'lishga intilish reaksiyasi voyaga yetmaganlarda dastlab deviant xulqning, keyinchalik esa delinkvent xulqning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi kuzatildi.

O'smirlik yoshiga xos bo'lgan emansipativlik - o'zgaruvchan va yengil xarakterlilik bolalar va o'smirlarning odatda boshqalarga nisbatan ota-ona, o'qituvchilari va kattalar tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdan ozod bo'lishga ko'proq harakat qilish xususiyatlarini namoyon qiladi. Shuningdek, o'smirlardagi maqtanchoqlik, o'zini kata tutish va mustaqillikka intilish hissining yuqoriligi, qaysarligi va doimo o'z fikrini ustun qo'yishga moyillik, asabiylilik va shu singari xususiyatlar ularda jamiyatda qabul qilingan umumiy talab va meyorlarni buzishga undovchi psixologik omil rolini o'ynaganligi kuzatiladi.

Bunday bolalar va o'smirlarda emansipatsiya reaksiyasining ifodalanishi turlicha ko'rinishda namoyon bo'ldi. U ba'zan o'smirning kundalik faoliyatdagi voqea-hodisalarni doimo o'z xohish istagi izmiga bo'ysundirish maqsadidagi xatti-harakatlar mazmunida ifodalansa, ba'zan esa o'z «Men» ligini ko'rsatishga nisbatan bo'lgan intilish maqsadidagi muomala munosabatlarda namoyon bo'lganligini kuzatamiz.

O'zgaruvchan, psixik beqaror xarakterli bolalar va o'smirlardagi affektga moyillik, jizzakilik, bo'lar-bo'lmasga jahl qilish va shu kabi xislatlar ko'pincha nizoli vaziyatlarning kelib chiqishiga va oqibatda ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarga nisbatan dezadaptatsiyalanishning yuzaga kelishiga va delinkvent xulqning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, ular xarakteridagi o'zgaruvchanlik, tuturuqsizlik xislatlari atrofdagilar oldidagi ishonchning, mehr-oqibatning yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun ham sinfdoshlari, yaqinlari ularni o'zlaridan uzoqlashtirishga, o'z davrasiga qo'shmaslikka harakat qiladilar. Bu o'smirni o'z bilganicha ish tutishga va turli xil noaxloqiy xulq-atvorli o'smirlar guruhiga qo'shilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Gipertem xarakter xususiyatiga ega bo'lgan bu bolalar va o'smirlar harakatchanlik, gapdonlik, liderlikka, muayyan muammolarni o'zicha mustaqil hal qilishga intilish, janjalkashlik, to'polonchilik, kattalarga nisbatan hurmatsizlik, ko'ngilochar davralarni xush ko'rishlik, xushchaqchaqlik, g'ayritabiiy narsalarga qiziquvchanlik va shu kabi xislatlarga ega bo'lib, ko'pincha ulardagi bu xislatlar va liderlikka nisbatan bo'lgan intilish tengqurlari o'rtasida kelishmovchilikka olib

kelganligi kuzatiladi. Ulardagi muammoni o'zicha mustaqil hal etishga nisbatan bo'lgan intilishning yuqoriligi esa ota-ona va o'qituvchilarning noroziligiga sabab bo'lganligi, buning natijasida o'smirning tengqurlaridan, oilaviy munosabatlardan yakkalanib qolishi yuzaga keladi. Shuningdek, ulardagi janjalashishga, tortishuvga moyillik xislatlari nizoli vaziyatlarning kelib chiqishiga, g'ayritabiiy narsalarga nisbatan qiziquvchanliklari esa «qosh qo'yaman deb ko'z chiqarish»ga olib kelganligi kuzatiladi. Oqibatda esa ular o'smirda dezadaptatsiyalanish jarayoniga sabab bo'ladi hamda jinoyatchilik xulqining paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotimizda o'rganilgan respondentlarda «tengqurlari bilan guruhlanish» reaksiyasi shaxs xususiyatlarida turlicha namoyon bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Xususan, guruhlanish darajasi gipertim xususiyatga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarda yorqin namoyon bo'lsa (17,26 %), distimik xususiyatli bolalar va o'smirlarda eng past darajani (4,14 %) ko'rsatdi. Shuningdek, o'zgaruvchan, psixik beqaror xarakterli (15,12%), qo'zg'aluvchan (12,23%), xavotirlanuvchan (11,13%), namoyishkor (9,21%), xususiyatli bolalar va o'smirlarda ham tengqurlari bilan guruhlanish reaksiyasi darajasi ancha yuqoriligi kuzatildi. (3.1.1 - jadval)

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, o'smirlarning tengqurlari bilan guruhlanish reaksiyasi ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ulardan biri bir xil jinsli va doimiy liderlikka ega bo'lish ko'rinishda namoyon bo'lsa, ikkinchisi, guruhning doimiy ravishdagi liderlikka ega bo'lmasligi vaziyatiga ko'ra, liderlik bir-biriga o'tib turuvchi va har xil liderga ega bo'lgan guruh vakillaridan tashkil topgan guruhlanishdir.

O'smirlarning guruhlanishi faoliyat, maqsad va yo'nalishiga ko'ra, ijtimoiy xavfli yoki xavfli bo'lmasligi mumkin. Ammo guruhlanish intellektual jihatdan unchalik ustun bo'lmagan va o'z jismoniy kuchiga, mushtumzo'rlikiga asoslangan liderga ega bo'lsa, bunday guruhlanish ijtimoiy xavfli, xati-harakatlari va faoliyati noqonuniy mazmunga ega bo'ladi. Bunday guruhlardagi bolalar va o'smirlarda ko'pincha o'g'irlik, bosqinchilik, zo'ravonlik jinoyatlari sodir etiladi. Ularda alkogolizm va narkomaniyaga berilish darajasi yuqori bo'ladi. Tadqiqotchi G.M.

Minkovskiy o'z davrida o'smirlar o'rtasida sodir etilayotgan qonunbuzarliklar ko'pincha guruhlar asosida amalga oshiriladi deb bejiz ta'kidlamagan edi.

O'smirlar o'rtasida guruhlanish o'smirning xarakter xususiyatiga ko'ra, qaysidir jihatlarining bir-biriga o'xshashligi, bo'ysunuvchanligi, itoatkorligi yoki qo'rqitish, qandaydir ma'noda tobe bo'lib qolishlik asosida paydo bo'ladi.

Tadqiqotimizda ishtirok etgan bolalar va o'smirlarda biror bir narsaga ishqibozlik (xobbi) reaksiyasi ham kuzatiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'smirlardagi ishqibozlik reaksiyasini qiziqish bilan aynan bir xil deb bo'lmaydi. Ishqibozlik ko'pincha hissiyotga (emotsiya) to'yinganligi bilan qiziqishdan farqlanadi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, ishqibozlik reaksiyasi asosan, gipertim, (18,02%) qo'zg'aluvchan (16,13 %), namoyishkor (12,18%) va pedantik bolalar va o'smirlarda (10,06 %) yorqin namoyon bo'ldi. Distimik (7,81 %), xavotirlanuvchan (4,21 %) va ekzaltir xususiyatli bolalar va o'smirlarda bu ko'rsatgich (6,09 %) ancha past darajani ko'rsatadi. (3.1.1. - jadval)

Tana-manual va liderlikka intilish reaksiyasi ko'pincha gipertim bolalar va o'smirlarda kuzatildi. (14,35 %). Shuningdek, egotsentrik, qimor (qiziqtiruvchi) o'yinlariga qiziqish, ishqibozlik reaksiyalari ham qo'zg'aluvchan, gipertim, namoyishkor xususiyatli bolalar va o'smirlarda ko'proq kuzatilishi ma'lum bo'ldi.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'lishicha, hirsiy mayl reaksiyasi ko'proq gipertim (21,65%) va psixik beqaror xarakterli (16,23 %) bolalar va o'smirlarda yorqin namoyon bo'ladi. (3.1.1 – jadval)

Kuzatishlarga qaraganda, jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlardagi o'ziga xos xarakter xislatlari ularda hirsiy mayl reaksiyasining namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Xususan, gipertim va namoyishkor xarakterga ega bo'lgan o'smirlar o'zlarining hirsiy mayl reaksiyasini namoyon qilishda ba'zan agressivlik va tajovuzkorlik holatlarini namoyon qiladilar.

**3.1.1 - jadval**

**Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxs xususiyatlarining ifodalanishi (K.Leongard testi bo'yicha)**  
( foiz hisobida )

№	Shaxs xususiyatlari	Yosh davri xususiyatlari							Delenkventlik darajasi
		Emansipsiya reaksiyasi	Tengqurlar bilan guruhlanish reaksiyasi	Ishqibozlik reaksiyasi	Xirsiy mayl reaksiyasi	Yosh bolalarga xos xulq-atvor reaksiyasi	Kompensatsiya reaksiyasi	Tana-manual va liderlikka intiluvchanlik reaksiyasi	
1	Gipertem	20,24	17,26	18,02	21,65	11,23	13,20	14,35	18,47
2	Qo'zg'aluvchan	13,24	12,23	15,13	4,81	17,20	16,26	12,54	8,64
3	Emotiv	4,14	8,21	6,23	7,32	8,26	11,32	8,42	8,44
4	Pedantik	7,16	9,16	10,06	9,21	7,82	9,64	10,74	5,42
5	Xavotirlanuvchi	8,32	11,31	4,21	9,32	19,28	8,96	9,96	10,26
6	Siklotomik	8,20	7,20	9,04	8,42	6,20	10,84	7,78	2,55
7	Namoyishkor	10,27	9,21	12,18	10,42	7,41	11,94	13,40	6,74
8	O'zgaruvchan, psixik beqaror	18,14	15,12	11,20	15,23	15,82	8,48	11,32	20,26
9	Distimik	6,24	4,14	7,81	5,34	4,49	4,34	6,30	5,01
10	Ekzaltir	4,17	6,23	6,09	7,27	3,29	5,01	5,18	5,20

Ma'lumki, o'smirlik yoshi hirsiy maylning shakllanish davri bo'lib, bu davrda differensiallashuv jarayoni va jinsiy rivojlanish bosqichi psixofiziologik jihatdan o'z poyoniga yetmagan bo'ladi. Shuning uchun o'smirda istalgan paytda arzimagan omillar asosida hirsiy mayl paydo bo'ladi. Hirsiy mayl ayniqsa psixofiziologik rivojlanish darajasiga ko'ra ilgari ketgan o'smirlarda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, o'smirlardagi hirsiy mayllik ular karakteridagi o'ta qo'zg'aluvchanlik va beqarorlik xislatlari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shu boisdan o'smirlardagi bunday xulq tezda patologik karakter kasb etishi ham mumkin. Hirsiy mayl xulqining patologik tus olishi esa delinkvent xulqning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi. Shuning uchun o'smirlardagi hirsiy maylning patologik tus olishiga yo'l qo'ymaslik bolalar va

o‘smirlar o‘rtasida xulq og‘ishi kelib chiqishining oldini olishda muhim hisoblanadi.

O‘smirlik yoshiga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlardan yana biri bu taqlidchanlikdir. Taqlidchanlik biror bir kishiga, kinofilmlardagi obrazlarga, yaqin kishilariga, o‘qituvchisiga, o‘rtoqlariga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Qachonki, o‘smir salbiy qahramonlarga, obrazlarga taqlid qila boshlasa, taqlid qilish ijtimoiy xavfli hisoblanishi mumkin. Bizning fikrimizcha bugungi kunda televideniya, internet sahifalarida va turli xil disketalar orqali namoyish etilayotgan jangari, axloqan jamiyatimiz va millatimiz madaniyatiga to‘g‘ri kelmaydigan kinofilmlarning namoyish etilishi ham bolalar va o‘smirlarda taqlid qilish reaksiyasining rivoj topishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqotimiz natijalariga asoslanib xulosa qilish mumkinki, bolalar va o‘smirlar xarakterida yosh davri inqirozlari xususan, o‘smirlik yoshi davri inqirozi, o‘tish davri qiyinchiliklari, psixo-fiziologik taraqqiyotdagi noturg‘unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuvidan ozod bo‘lishga intilish), gedonistik (o‘zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiya, beqaror va o‘zgaruvchan xarakterlilik, qo‘zg‘aluvchanlik, distimik, gipertimlik, guruhlanish va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyalarining namoyon bo‘lishi va boshqalar ularda xulq –atvor xususiyatlari mazmun va mohiyatini belgilaydi hamda shaxslararo munosabatlarda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

### **3.2 Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida muloqatchanlik xususiyatlarining shakllanganligini o‘rganish natijalari**

**Empatiya** – bu insonning boshqa odamlarga hamdard bo‘la olish, qayg‘udosh bo‘lish holatini tushunish hamda qo‘ldan kelgancha yordam berishga tayyorgarlik qobiliyatidir.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida empatiya qobiliyatini o‘rganish maqsadida X.U.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxsda empativlik” (o‘zgalor holatini his etish) xususiyatini aniqlash metodikasi o‘tkazildi. Mazkur

metodika 36 ta savolnomadan tuzilgan bo‘lib, unga bilmayman, hech qachon, ba‘zan, ko‘rincha, deyarli doim, ha har doim tarzida javob berish so‘raladi. Shunga muvofiq mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida mazkur metodika o‘tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks ettirildi.

3.2.1-jadval

<b>Sinaluvchilar</b>	<b>Juda yuqori</b>	<b>Meyorda</b>	<b>Juda quyi</b>
60 nafar	5 %	13	36 %

Empatiya qobiliyati 5% sinaluvchilardan juda yuqori darajasni tashkil qiladi. Bu boshqalardagi ichki kechinma va holatlarni to‘la oldindan his qila olish va hamdard bo‘lish bilan belgilanadi. 13 % sinaluvchilardan meyor ya‘ni ular atrofdagi insonlardan kechadigan xissiy kechinmalarni anglay oladilar 20% bu ko‘rsatkich o‘rta darajani qilsa 26%-36% sinaluvchilardan quyi va juda quyi ko‘rsatkichlar ko‘zga tashlanadi. Quyi va juda quyi ko‘rsatkichga ega bo‘lganlarda u darajada empativlik qobiliyati ko‘zga tashlanmaydi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsida muloqotchanlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini o‘rgatish maqsadida shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini o‘rganish test metodikalaridan foydalaniladi. Pedagoglarda muloqotchanlik qobiliyatlarini o‘rganish maqsadida shaxsning muloqotchanlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini o‘rganish metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik shuningdek tarbiyalanuvilar o‘rtasida nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillarini o‘rganishdan iborat. Metodika savolnomasi 40 ta bo‘lib ulardan 20 tasi kommunikativ qobiliyatlarni o‘rganishga qaratilgan.

Unga ko‘ra aynan tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi nizoni kelib chiqishiga ulardagi muloqot rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini o‘rganish maqsadida o‘rganildi.

Natijalarni qayta ishlash qo‘yidagicha amalga oshiriladi ya‘ni tekshiriluvchilarni javoblarini deshifrador bilan solishtirib kommunikativ va

tashkilotchilik qobiliyatlariga mos kelgan varianti hisoblab chiqiladi. Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini baholash koeffitsenti quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi.

$(Kk)q$  to'g'ri kelgan javoblarning soni  $\times 0,05$

$(Kt)q$  to'g'ri kelgan javoblarning soni  $\times 0,05$

Sinaluvchilarda olingan natijalar miqdor va sifat jihatida tahlil qilinib, miqdoriy tahlil natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

3.2.2-jadval

<b>Sinaluvchilar</b>	<b>Juda yuqori</b>	<b>yuqori</b>	<b>o'rta</b>	<b>O'rtadan past</b>	<b>past</b>
7-11 yoshgacha	-	8,0	22%	32,6	38,4
12-15 yoshgacha	10%	23,4	34%	15%	18,3

Jadval natijalariga asoslanib quyidagicha sifat tahlil amalga oshiriladi. Ya'ni sinaluvchilarning 18% va 38% ida natijalar past ko'rsatkichga ega ekanligi bilan aniqlanib ularda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari past ekanligi bilan belgilanadi. Ularda muloqotga kirishish nisbatan tortinchoqlik atofdagilarga qo'shilmaslik kabi sifatlar ko'zga tashlanadi. Shuningdek sinaluvchilarda atrofidagilarni uyushtira olish jamoani jipslashtirish holatlari kuzatiladi. Shuningdek muloqotchanlikning yetishmasligi o'quvchilar bilan munosabat o'rnatishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

O'rtadan past ko'rsatkich tarbiyalanuvchilarda 15% bilan ustunlikni kasb etsa talabalarda 32% ni tashkil qiladi. Bu sinaluvchilarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o'rtadan past darajani tashkil qiladi. Ularda muloqotga intilish kuchli darajada namoyon bo'lmaydi, ya'ni guruhda o'zini erkin tuta olmaydi vaqtni yolg'iz o'tkazishni afzal ko'radi, o'zlarini tanishuvlarini chegaralab qo'yadi, tengdoshlari bilan muloqot o'rnatishga va ko'pchilik oldida gapirishga qiynaladi, ko'p ishlarda mustaqil qaror qabul qilishda chetga tortishni afzal ko'radi.

Sinaluvchilar orasida oʻrtacha koʻrsatkich 34% va 22% ni tashkil qiladi. Unga koʻra kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari oʻrta darajani tashkil qiladi. Ular odamlar bilan muloqot oʻrnatishga intiladi, oʻz tanishishlari sonini chegaralamaydi, oʻz fikrini himoya qila oladi ishlarini rejalashtiradi va qobiliyatlarini yuqori turgʻunlik bilan namoyon qiladi.

Ayniqsa sinaluvchilar orasida kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari 23% va 8% ida yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Unga koʻra ular yangi vaziyatlarda oʻzini yoʻqotmaydi, atrofdagildar bilan juda tez chiqishadi tanishuvlar darajasini har doim kengaytirishga intilishadi, jamoat ishlari bilan shugʻullanadi, yaqinlari va doʻstlariga yordam beradi jamoat tadbirlarini tashkil qilishda qatnashadi, ogʻir vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladi ular uchun biror narsani qilishda aytish ham majburlash ham shart emas balki bunga ular oʻz ishtiyoqlari intilishlari bilan yondashishga harakat qiladilar.

Juda yuqori koʻrsatkich tarbiyalanuvchilarda 5% bilan ustunlikni koʻrsatdi. Ayniqsa ular muloqot va tashkiliy faoliyatga katta ehtiyojni his etadilar va shunga faol intilishadi, ogʻir vaziyatlarda tez yoʻl topa olishadi.

Metodika natijalaridan koʻrinadiki tarbiyalanuvchilarda muloqatchanlikning rivojlanishi shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan turli noxush vaziyatlarni oldini olish ikoniyatini beradi shuningdek muloqot faoliyatini samarali boʻlishiga ayniqsa tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar oʻrtasidagi hamkorlikni toʻgʻri yoʻlga qoʻyilishiga sabab boʻladi.

## Tyu

Taʼlim jarayonida oʻquvchilarda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalash bir necha bosqichlarda olib borildi.

Oʻquvchilarning muloqat munosabatni shakllantirishning oʻquv va uslubiy qoʻllanmalarda qanday ahvolda hal etishi aniqlandi. Soʻngra oʻquvchilarning tabiiy fanlar asoslariga qizishlarini orttirishga tayyorlangan didaktik, tarqatma materiallarni va ularning oʻziga xos jihatlari ularni oʻqitish uslublarini, kompyuter hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib, tajribada sinab koʻrish maʼqullandi.

Shu bois dissertatsiyada yoritilgan materiallarni pedagogik tajribada sinab ko'rish tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi

Qamashi tumanidagi 1-sonli Mehribonlik uyida pedagogik tajriba-sinov o'tkazishda asosan quyidagilarni sinab ko'rish nazarda tutildi:

Pedagogik tajriba-sinov o'tkazish davrida muloqat munosabatga oid materiallarni o'quvchilarga o'rgatish uslublari darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sinab ko'rildi.

Tadqiqot ishimizda ijobiy natijalar bergan uslublarning samarali jihatlari 2015-2016 yillarda o'rganildi. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda o'quvchilarning muloqat munosabatni shakllantiradigan ishlarning holatini o'rganishga kirishdik va quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashning avvalgi holati

13-jadval

№	Darajalar Mezonlar	O'quvchilar soni 85 nafar			
		Tajriba sinfi 45		Nazorat sinfi 40	
		Ijobiy	Salbiy	ijobiy	Salbiy
1.	Quroni Karim hamda Hadisu sharif orqali	26	19	15	25
2.	Umumxalq bayramlarimizni nishonlash orqali	12	33	18	22

<b>3.</b>	Xalq og'zaki ijodi orqali	<b>22</b>	<b>23</b>	<b>5</b>	<b>35</b>
<b>4.</b>	Milliy ruknda tayyorlangan kino va teatrlar, matbuot va ommaviy axborot vositalari orqali	<b>14</b>	<b>31</b>	<b>7</b>	<b>33</b>
<b>5.</b>	Milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida	<b>20</b>	<b>25</b>	<b>10</b>	<b>30</b>
<b>6.</b>	Davlat ramzlari tasnifida	<b>10</b>	<b>35</b>	<b>4</b>	<b>36</b>
<b>7.</b>	Ajdodlar tarixi va merosini o'rganish orqali	<b>18</b>	<b>27</b>	<b>8</b>	<b>32</b>
<b>8.</b>	Milliy sport oyinlari orqali	<b>7</b>	<b>38</b>	<b>3</b>	<b>37</b>

Birinchi galdagi natijalardan ma'lum bo'ldiki, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashga ahloqiy meyorlar, tartib qoidalar, fanlar, tadbirlarning mohiyatini to'laqonli tushuntirish qobiliyatiga ega emasliklari sababli berilgan savollarga to'liq javob bera oladilar. Javob berishga harakat qilgan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalash ong va faoliyat mohiyatini to'g'ri talqin etish imkoniyatiga ega emaslar, shu bois ular muloqat munosabatni tarbiyalashga qaratilgan faoliyatini tashkil eta olmaydilar. Mazkur holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashga bo'lgan intilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning deyarli barchasi yuqorida qayd etilgan muloqat munosabatni tarbiyalashga bilimlar va ular mazmunini o'zida namoyon etuvchi manbalar haqida to'liq ma'lumotga ega emaslar. Tajriba-sinov so'nggida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashga oid dunyoqarashlari yana bir bor aniqlandi va oldingi

holatidan tubdan farqlanuvchi ko'rinish sodir bo'ldi. Mazkur holatni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashning keyingi holati

14-jadval

№	Darajalar Mezonlar	O'quvchilar soni 85 nafar			
		Tajriba sinfi 45		Nazorat sinfi 40	
		ijobiy	salbiy	ijobiy	salbiy
1.	Quroni Karim hamda Hadisu sharif orqali	30	15	35	5
2.	Umumxalq bayramlarimizni nishonlash orqali	26	19	34	6
3.	Xalq og'zaki ijodi orqali	29	16	37	3
4.	Milliy ruknda tayyorlangan kino va teatrlar, matbuot va ommaviy axborot vasitalari orqali	24	21	26	4
5.	Milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida	28	17	36	4
6.	Davlat ramzlari tasnifida	27	18	38	2
7.	Ajdodlar tarixi va merosini o'rganish orqali	26	19	28	12
8.	Milliy sport oyinlari orqali	29	16	37	14

Dars jarayonida ta'lim hamda sinf va maktabdan tashqari muloqat munosabatni tarbiyalashning puxta ishlangan dastur asosida, aniq maqsad va faoliyat mazmunini belgilangan holda olib borishi Mehribonlik uylari

tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashning chuqur o'zlashtirilishi ularda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarning tarkib topishi hamda o'quvchilarning bu boradagi muloqat munosabatni tarbiyalash oid faolliklarini ta'minlashga olib keldi. Ana shu hol Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashning o'zlashtirish darajasi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan aniqlandi. Tajriba-sinovga qatnashgan o'quvchilar uchun muloqat munosabatni tarbiyalashdan maxsus savollar tuzildi. Savollarni tuzishda quyidagilarga alohida e'tibor berildi: Maktab komponent fanlari tarkibida mavjud bo'lgan milliy g'ururni tarbiyalashga oid bilimlar tizimiga; fanlararo bog'lanishga; o'quvchilarning oldingi tajriba va bilim darajasiga; tanlangan savollarning muhim va ilmiyligiga; o'quvchilarning yosh xususiyatlariga; savollarning uzviyligi va uzluksizligi; Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashga oid quyidagi savollar tavsiya etildi:

15-jadval

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashga oid bilimlarni o'zlashtirish darajasi

<b>Sinflar</b>	<b>Soni</b>	<b>Muloqat munosabatini tarbiyalashni o'zlashtirish darajasi</b>		
		<b>Quyi</b>	<b>o'rta</b>	<b>yuqori</b>
<b>nazorat</b>	<b>n<sub>1</sub> = 40</b>	<b>18</b>	<b>12</b>	<b>10</b>
<b>tajriba</b>	<b>n<sub>2</sub> = 45</b>	<b>20</b>	<b>16</b>	<b>9</b>

16-jadval

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashga oid bilimlar o'zlashtirish darajasi

<b>Sinflar</b>	<b>Soni</b>	<b>Muloqat munosabatini tarbiyalashni o'zlashtirish darajasi</b>
----------------	-------------	--

		<b>Quyi</b>	<b>o'rta</b>	<b>yuqori</b>
<b>nazorat</b>	$n_1 = 40$	<b>13</b>	<b>11</b>	<b>16</b>
<b>tajriba</b>	$n_2 = 45$	<b>16</b>	<b>13</b>	<b>16</b>

Izoh: -jadvalda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashga oid bilimlarni tajribadan oldin o'zlashtirish darajasi ko'rsatilgan;

14-15-jadvalda esa o'quvchilar tomonidan muloqat munosabatni tarbiyalashga oid bilimlarning o'zlashtirish darajasi 100 balli tizim asosida hisoblandi.

Darajalarni aniqlashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- a) yuqori daraja 86 - 100 ball;
- b) o'rta daraja 71 - 85 ball;
- v) quyi daraja 56 - 70ball.

Tajriba-sinov maktablari o'quvchilarning muloqat munosabatni tarbiyalashni faoliyat olib borish darajasini ham aniqlashga urinildi. Bu hol esa dalillar asosida quyidagi ko'rinishni namoyon etdi:

Tajribadan oldingi muloqat munosabatni tarbiyalashni faoliyatni tashkil etish darajasi

17-jadval

<b>Sinflar</b>	<b>Soni</b>	<b>Muloqat munosabatni tarbiyalashni o'zlashtirish darajasi</b>		
		<b>Quyi</b>	<b>o'rta</b>	<b>yuqori</b>
<b>nazorat</b>	$n_9 = 40$	<b>16</b>	<b>16</b>	<b>11</b>
<b>tajriba</b>	$n_2 = 45$	<b>15</b>	<b>15</b>	<b>12</b>

Tajribadan keyingi muloqat munosabatni tarbiyalashning faoliyatni tashkil etish darajasi

Sinflar	Soni	Muloqat munosabatni tarbiyalashni o'zlashtirish darajasi		
		Quyi	o'rta	Yuqori
Nazorat	$n_1 = 40$	13	11	16
Tajriba	$n_2 = 45$	14	10	21

Izoh:16- jadvalda o'quvchilar tomonidan muloqat munosabatni tarbiyalash faoliyatni tashkil etishning tajribadan oldingi darajasi.

17- jadvalda esa tarbiyalanuvchilar tomonidan muloqat munosabatni tarbiyalash faoliyatni tashkil etishning tajribadan so'nggi darajasi keltirilgan.

O'quvchilar tomonidan muloqat munosabatni tarbiyalash faoliyatni tashkil etish darajasi ularning quyidagi holatlaridagi ishtiroklariga ko'ra aniqlandi:

Ta'limni tashkil etish jarayonida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni shakllantirish, ularda milliy g'ururni hosil qilish, shuningdek, muloqat munosabatni tarbiyalashni shakllantirish ularning keng ko'lamda amaliy faoliyatga jalb etish yo'li bilan ijobiy hal etilishi mumkin. Shu bois tajriba-sinov maktabda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalash faoliyatga tortish ishlarining olib borilishiga alohida ahamiyat qaratdik. Samarali natija bera olgan bu urinish borasidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Muloqat munosabatni tarbiyalash faoliyatiga jalb etish ishlari

№	Maktablar	O'quvchilar soni – 85 ta				
		Tajriba avvalida		Tajriba so'nggida		Oraliq farqi
	+85	nafar	Foiz	nafar	foiz	foiz
1,	1- maktab	85+29	34,1	85+55	64.7	30.6

Demak, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni shakllanish darajasi:

- a) Muloqat munosabatga oid bilimlarni o'zlashtirish;

b) amaliy muloqat munosabatni o'zni tarbiyalash faoliyatni tashkil etish ko'rsatkichlari orqali aniqlandi.

Yuqorida so'z yuritilgan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalash shartli ravishdagi yuqori o'rta va quyi darajada ekanligi aniqlandi. Bu tadqiqotning natijasi quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashga oid shakllanganlik darajasi miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar qaqida ma'lumotlar

20-jadval

№	Sinflar	Tajriba sinflari n <sup>10</sup> = 45		Nazorat sinflari n <sup>11</sup> =40	
		Darajalar	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida
1.	<b>Yuqori</b>	<b>15</b>	<b>13</b>	<b>8</b>	<b>17</b>
2.	<b>O'rta</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>14</b>	<b>12</b>
3.	<b>Quyi</b>	<b>18</b>	<b>20</b>	<b>18</b>	<b>11</b>

Shunday qilib, ta'limni tashkil etish jarayonida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni shakllantirishning asosiy yo'li – uzoq muddatli, puxta rejalashtirilgan nazariy-amaliy muloqat munosabatni tarbiyalashning maorif tuzilishni yaratish, uning g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda ular samaradorligini keskin oshirish borasidagi jarayonini tashkil etishdan iborat deb qaraldi.

17-jadval nazorat to'g'risidagi Nizomga muvofiq Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalashning shakllanganlik darajalari ular tomonidan muloqat munosabatni tarbiyalashga oid bilimlarni o'zlashtirish hamda muloqat munosabatni tarbiyalash va faoliyat ko'nikmalarini hosil qilish holatiga muvofiq quyidagi tarzda mezonlandi:

1. 60% dan 70% gacha – «quyi daraja» («3»).

2. 80% dan 89% gacha – «oʻrta daraja» («4»).
3. 90% dan 100% gacha – «yuqori daraja» («5»).

13-jadvalda keltirilgan muloqat munosabatni tarbiyalash daraja koʻrsatkichlari haqqoniyligini aniqlash maqsadida matematik – statistik tahlilni Student-Fisher metodi boyicha amalga oshirdik.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalarini 13-jadval koʻrsatkichlari asosida muloqat munosabatning shakllanganlik darajasini tajriba-sinovgacha boʻlgan davrda oʻtkazilgan tajriba va nazorat sinflaridagi oʻzlashtirishlarini umumiy holda statistik tahlil qilamiz. Nazorat natijalarini umumiy holda quyidagi jadvalda ifodalaymiz.

Tajriba-sinovdan oldin Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalanganlik darajasining miqdoriy va sifatiy oʻzgarishlarini aniqlash koʻrsatkichlari

21-jadval

Sinflar	Tarbiyalanuvchilar soni	Oʻzlashtirish darajalari		
		Yuqori	Oʻrta	Past
Tajriba sinfi	45	15	12	18
Nazorat sinfi	40	8	14	18

Bu koʻrsatkichlarni foizlarda hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz. Har bir oʻquvchining oʻzlashtirish koeffitsiyenti foizlarda

$$K = \frac{J}{Q} \cdot 100\% \text{ formula orqali topiladi.} \quad (1)$$

Bu yerda J – oʻtkazilgan soʻrovnomada berilgan toʻgʻri javoblar soni. Q – oʻquvchilarning umumiy soni.

22-jadval

Baho	Sinflar	Tajriba	Nazorat
	1.	Yuqori	$K_1 = \frac{15}{45} \cdot 100\% = 33,3\%$

2.	O'rta	$K_1 = \frac{12}{45} \cdot 100\% = 26,6\%$	$K_2 = \frac{14}{40} \cdot 100\% = 35\%$
3.	Past	$K_1 = \frac{18}{45} \cdot 100\% = 40\%$	$K_2 = \frac{18}{40} \cdot 100\% = 45\%$

Tajriba va nazorat sinfdagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz.

1-tanlanma  $X_i$ : yuqori; o'rta; past;

(tajriba sinfi)  $n_i$ : 15; 12; 18.

$M=45$ .


2-tanlanma  $Y_j$  yuqori; o'rta; past;

(nazorat sinfi)  $n_j$  8; 14; 18.

$N=40$ .

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammanichizamiz:

9-rasm. Tajriba-sinovdan oldin Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida muloqat munosabatni tarbiyalangalik darajasining miqdoriy va sifatiiy o'zgarishlarini aniqlash diagrammasi.



Diagrammada qayd etilgan grafiklaridan anglanadiki, tajriba va nazorat sinflari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda  $M_t = 5$  va  $M_n = 3$ , ya'ni ular orasidagi farq yetarli darajada bo'lib,  $M_t > M_n$  ekan. Bu esa, o'z navbatida, bu

tanlanmalar uchun mos o'rtacha qiymatlar ham  $X > Y$  shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko'rsatadi deb, quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{45} (15 \cdot 5 + 12 \cdot 4 + 18 \cdot 3) = \frac{1}{45} (75 + 48 + 54) = \frac{177}{45} = 3,9$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{40} (8 \cdot 5 + 14 \cdot 4 + 18 \cdot 3) = \frac{1}{40} (40 + 56 + 54) = \frac{150}{40} = 3,8$$

Demak, tajriba sinfida o'rtacha o'zlashtirish nazorat sinfidagi o'rtacha o'zlashtirishdan kichik bo'lib chiqdi, ya'ni:  $X < Y$ . Agar mos o'rtacha qiymatlarda tajriba sinfining o'rtacha o'zlashtirishi nazorat sinfining o'rtacha o'zlashtirishidan kichik bo'lsa, hech qanday samaradorlikka erishilmaydi.

Endi 13-jadval ko'rsatkichlari asosida muloqat munosabatning shakllanganlik darajasini tajriba-sinovdan keyingi davrda o'tkazilgan tajriba va nazorat sinflaridagi o'zlashtirishlarini umumiy holda statistik tahlil qilamiz. Nazorat natijalarini umumiy holda quyidagi jadvalda ifodalaymiz:

Tajriba-sinovdan keyin muloqat munosabatning shakllanganlik darajasining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aniqlash ko'rsatkichlari

23-jadval

	Tarbiyala nuvchilar soni	O'zlashtirish darajalari		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba sinfi	45	13	12	20
Nazorat sinfi	40	17	12	11

Bu ko'rsatkichlarni ham foizlarda (1) formula boyicha hisoblasak, quyidagi jadvalga ega bo'lamiz.

24-jadval

Baho	Sinflar	Tajriba	Nazorat
	Yuqori		$K_1 = \frac{13}{45} \cdot 100\% = 29\%$

.	O'рта	$K_1 = \frac{12}{45} \cdot 100\% = 26,6\%$	$K_2 = \frac{12}{40} \cdot 100\% = 30\%$
.	Past	$K_1 = \frac{20}{45} \cdot 100\% = 44,4\%$	$K_2 = \frac{11}{40} \cdot 100\% = 27,5\%$

Tajriba va nazorat sinfdagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo'lamiz.


1-tanlanma  $X_i$ : yuqori; o'рта; past;  
(tajriba sinfi)  $n_i$ : 13; 12; 20.

$M=150$

2-tanlanma  $Y_j$  yuqori; o'рта; past;  
(nazorat sinfi)  $n_j$  17; 12; 11.

$N=150$ .

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



10-rasm. Tajriba-sinovdan keyin muloqat munosabatning shakllanganlik darajasining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aniqlash diagrammasi

Diagrammada qayd etilgan grafiklaridan anglanadiki, tajriba va nazorat sinflari uchun tanlanma modal qiymatlari mos ravishda  $M_t = 5$  va  $M_n = 3$ , ya'ni ular

orasidagi farq yetarli darajada bo'lib,  $M_t > M_n$  ekan. Bu esa, o'z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar ham  $X > Y$  shartlarni qanoatlantirishini oldindan ko'rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{45} (18 \cdot 5 + 43 \cdot 4 + 20 \cdot 3) = \frac{1}{40} (65 + 48 + 60) = \frac{173}{45} = 3,8$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{40} (17 \cdot 5 + 12 \cdot 4 + 11 \cdot 3) = \frac{1}{40} (85 + 48 + 33) = \frac{166}{40} = 4,1.$$

Demak, tajriba sinfida o'rtacha o'zlashtirish nazorat sinfidagidan katta ekan:  
 $X > Y$

Endi har ikki sinf uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarini hisoblaymiz. Shu maqsadda dastlab tanlanma dispersiyalarni hisoblaymiz:

$$D_m = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (x_i - \bar{x})^2 / (n-1) = \frac{13(5-3,8)^2 + 12(4-3,8)^2 + 20(3-3,7)^2}{45} =$$

$$= \frac{13 \cdot 7,44 + 12 \cdot 0,042 + 0,64 \cdot 1,44}{45} = \frac{18,72 + 0,45 + 12,8}{45} = \frac{103,8}{45} \approx 0,71$$

$$D_n = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (y_i - \bar{y})^2 / (n-1) = \frac{17(5-4,1)^2 + 12(4-4,4)^2 + 11(3-4,2)^2}{149} =$$

$$= \frac{17 \cdot 0,81 + 12 \cdot 0,01 + 11 \cdot 1,21}{40} = \frac{13,72 + 0,12 + 13,31}{40} = \frac{272}{40} \approx 0,68$$

Bu natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanishlarni topamiz:

$$\tau_m = \sqrt{0,71} \approx 0,84 \qquad \tau_n = \sqrt{0,68} \approx 0,82$$

Bular asosida har ikki sinf uchun variatsiya ko'rsatgichlarini hisoblaymiz:

$$\delta_\delta = \frac{\tau_\delta}{\bar{X}} = \frac{0,84}{4,2} \approx 0,2 \qquad \delta_n = \frac{\tau_n}{\bar{Y}} = \frac{0,84}{3,8} \approx 0,22$$

Agar statistik alomatning qiymatdorlik darajasini  $\alpha = 0,05$  deb olsak, u holda Laplas funksiyasi jadvalidan statistika uchun kritik nuqta  $t_{kr}$  ni

$$\Phi(t_{kr}) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2 \cdot 0,05}{2} = \frac{0,9}{2} = 0,45$$

tenglikdan aniqlaymiz:  $t_{kr} = 1,67$ . Bundan baholashning ishonchli chetlanishlarini topsak:

$$\Delta_m = t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,71}{\sqrt{45}} = 1,67 \cdot \frac{0,71}{6,708} = \frac{1,1857}{0,708} \approx 1,6$$

ga teng, nazorat sinfida esa:

$$\Delta_{\kappa} = t_{\gamma} \cdot \frac{D_{\kappa}}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,68}{\sqrt{40}} = 1,67 \cdot \frac{0,68}{6,32} = \frac{1,13}{6,32} \approx 0,1$$

ga teng. Topilgan natijalardan tajriba sinfi uchun ishonchli intervalni topsak:

$$\bar{X} - t_{\gamma} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_{\gamma} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}}$$

$$4,1 - 0,1 \leq a_x \leq 4,1 + 0,1$$

$$4 \leq a_x \leq 4,2$$


nazorat sinfi uchun ishonchli interval:

$$\bar{Y} - t_{\gamma} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{\gamma} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$3,8 - 1,6 \leq a_y \leq 3,8 + 1,6$$

$$4 \leq a_y \leq 4,2$$

Buni geometrik tasvirlasak:



Bundan  $\alpha=0,05$  qiymatdorlik darajasi bilan aytish mumkinki, tajriba sinfida o'rtacha baho nazorat sinfidagi o'rtacha bahodan yuqori va oraliq intervallari ustma-ust tushmayapti. Demak, matematik-statistik talilga asosan, yaxshi natijaga erishilgani ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatgichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum  $\bar{X}=4,1$ ;  $\bar{Y}=3,8$ ;  $\Delta_{\delta} = 0,1$ ;  $\Delta_{\mu} = 1,6$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatgichlari:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \Delta_m)}{(\bar{Y} + \Delta_{\mu})} = \frac{4,1 - 0,1}{3,3 + 1,6} = \frac{4}{5,4} = 1,35 > 1;$$

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_{\mu}) = (4,1 - 0,1) - (3,8 - 0,22) = 3,8 - 3,65 = 0,25 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba sinfidagi o'zlashtirish nazorat sinfidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Demak, tajriba-sinovdan keyin muloqat munosabatning shakllanganlik

darajasining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aniqlash boyicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekan.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosa.**

Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining individual-psixologik xususiyatlari va yosh davri inqirozlari xususan, o'smirlik yoshi davri inqirozi, o'tish davri qiyinchiliklari, psixo-fiziologik taraqqiyotdagi noturg'unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuvidan ozod bo'lishga intilish), gedonistik (o'zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiya, beqaror va o'zgaruvchan xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, distimik, gipertimlik, guruhlanish va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyalarining namoyon bo'lishi va boshqalar ularda xulq –atvor xususiyatlari mazmun va mohiyatini belgilaydi hamda shaxslararo munosabatlarda o'ziga xos o'rin tutadi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining muloqtchanlik va kirishimlilik qobiliyati o'zaro shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatini belgilaydi. Buni tadqiqotimiz natijalaridan olingan ma'lumotlar ham isbotlaydi. Buni 12-15 yoshdagi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridagi muloqtchanlik sifatlari darajasining yuqoriligi holati ham ko'rsatadi. Aksincha 7-11 yoshdagi tarbiyalanuvchilarda muloqtchanlik sifatlari darajasining pastligi ularda shaxslararo munosabatlardagi tortinish, tezda kirishib keta olmaslik xislatlari, shaxslararo munosabatlardagi turli xil nizolar, kelishmovchiliklarning kelib chiqishi darajasi yuqoriligini belgilaganligi namoyon bo'ladi.

## Umumiy xulosa

1. Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ilmiy manblar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, xorij va hamdo'stlik mamlakatlarida shu jumladan O'zbekistonda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxs, individual-psixologik, aqliy taraqqiyot xususiyatlari, axloqiy xususiyatlari o'rganilgan bo'lsada, Ammo mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari alohida ilmiy tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Buning sababi birinchidan, bu sohadagi mutaxassislarning yetarli emasligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar respublikamizning ijtimoiy, etnik hamda mintaqaviy xususiyatlarimizga mos kelmasligi va bu ushbu sohada ilmiy izlanish modelini rishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

Tadqiqotimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxs xususiyatlari va muloqotga kirishimlilik darajalarini o'rganish natijalari quyidagi **xulosalarni** keltirib chiqardi:

2. Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining individual-psixologik xususiyatlari va yosh davri inqirozlari xususan, o'smirlilik yoshi davri inqirozi, o'tish davri qiyinchiliklari, psixo-fiziologik taraqqiyotdagi noturg'unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuvidan ozod bo'lishga intilish), gedonistik (o'zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiya, beqaror va o'zgaruvchan xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, distimik, gipertimlik, guruhlanish va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyalarining namoyon bo'lishi va boshqalar ularda xulq –atvor xususiyatlari mazmun va mohiyatini belgilaydi hamda shaxslararo munosabatlarda o'ziga xos o'rin tutadi.

3. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining muloqotchanlik va kirishimlilik qobiliyati o'zaro shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatini belgilaydi. Buni tadqiqotimiz natijalaridan olingan ma'lumotlar ham isbotlaydi. Buni 12-15 yoshdagi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridagi muloqotchanlik sifatleri

darajasining yuqoriligi holati ham ko'rsatadi. Aksincha 7-11 yoshdagi tarbiyalanuvchilarda muloqotchanlik sifatlari darajasining pastligi ularda shaxslararo munosabatlardagi tortinish, tezda kirishib keta olmaslik xislatlari, shaxslararo munosabatlardagi turli xil nizolar, kelishmovchiliklarning kelib chiqishi darajasi yuqoriligini belgilaganligi namoyon bo'ladi.

4. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsiga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar jumladan, Aqliy taraqqiyot va tafakkur xususiyatlari, mustaqil fikr yurituvchanlik, amaliylik, o'zini nazorat qilish kabi xususiyatlar ularning shaxslararo munosabatlari muvaffaqiyatiga, o'z ta'sirini ko'rsatadi.

5. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsidagi tashvishlanish va xavotirlik darajasining yuqoriligi shaxslararo munosabatlar doirasiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tashvishlanish darajasi yuqori darajaga ega bo'lgan holatlarda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'zaro shaxslararo munosabatlarida nizoli vaziyatlar, kelishmovchiliklar yuzga kelar ekan.

6. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsiga xos bo'lgan muloqotga kirishimlilik va tashkilotchilik qobiliyati o'zaro shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – 7-jild. – T.: O‘zbekiston, 1999.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T. “O‘zbekiston”, 2005.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 15-89
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch.–T.:«Ma’naviyat», 2008.-176 b.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir // “Fidokor” gazetasi, 2000 yil, 8 iyun.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B.23-24.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O‘zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: O‘zbekiston, 1997.
9. Adler A. Bezprizorniye deti. Per. Y.A.Obuxova. M: 1974, 376 s.
10. Andresyan A.P. Osobennosti formirovaniya i deyatelnosti detskix kollektiv v shkolax-internatax. Yerevan. 2001 -178 s.
11. Aseyev V.G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniya lichnosti. M: 2001 -203 s.
12. Akramova F.A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. – T.: Shams-A, 2005. – 68 b.
13. Allaxverdov V.M., Bogdanova S.I. i dr. Psixologiya: Uchebnik. 2-ye izd. / Otv. red. Krilov A.A. Pererab. i dop. – M.: TK. Velbi, Prospekt, 2004. – 752 s.

14. Alemaskin M.A. Psixologo-pedagogicheskiye problemi preduprejdeniya pedagogicheskoy zapushennosti ipravarusheniy nesovershennoletnix //Psixologicheskiye problemi preduprejdeniya pravonarusheniy podrostkov. - Sb. nauch. trudov – Voronej, 1982. - S. 94-102.
15. Andreyeva T.V. Sotsialnaya psixologiya semeynix otnosheniy. – SPb.: 1998.
16. Aseyev V.G. Motivatsiya povedeniya i formirovaniya lichnosti.- M., 1976. - S.79-83-84.
17. Bolotova A.K. Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.K. Bolotova. – M.: Gardariki, 2006.
18. Borozdina G.V. Psixologiya delovogo obsheniya: Uchebnik. – 2-ye izd. – M.: INFRA-M, 2006. – 295 s.
19. Vinogradova A.A. Pedagogicheskaya rukovodstvo vospitatelnom protsessom v detskix domax. M.: 1997, 189 s.
20. Vasila Karimova. Salomatlik psixologiyasi: yohud sog‘lom bo‘lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. – 71 b.
21. Vilyunas V.K. Psixologicheskiy analiz emotsionalnix yavleniy. - M., 1974. - S. 168.
22. Vigotskiy L.S. Sobraniye sochineniy. T - 4. Detskaya psixologiya. - M.: «Pedagogika», 1984. - 432 s.
23. Vigotskiy L.S. Razvitiye visshix psixologicheskix funktsiy. - M., 1967.- S. 167-169.
24. Gamezo M.V, Domashenko I.A. “Atlas po psixologii”. – M.: 1986.
25. Grishina N.V. Psixologiya konflikta. – SPb.: Izdatelstvo “Piter”, 2000. – 464 s.
26. Davletshin M.G. Milliy maktabda tarbiyaning dolzarb muammolari. // «Xalq ta’limi». - № 3-4. 1995, 16-19 va 23-31 betlar.
27. Dragunova T.V. O nekotoryx psixologicheskix osobennostyax podrostkov. //Voprosi psixologii lichnosti shkolnika. Pod red. L.I.Bojovich, L.V.Blaginadejinoy. - M.: APN RSFSR, 1961. - S. 120-169.

28. Dzenushkayte S.A. Nash dom. M.: 1989, 187 s.
29. Zemlyanuxina V.A. Osobennosti obsheniya i lyuboznatelnosti u vospitannikov zakritix uchrejdeniy v rannem vozraste. M.: 1896. 207 s.
30. Yefimova N.S. Psixologiya obsheniY. Praktikum po psixologii: Uchebnoye posobiye. – M.: ID “FORUM”: INFRA-M. 2006. – 192 s.
31. Marko A.Y. Adaptatsiya podrostkov, leshennix roditelskogo popechitelstva v strukture ALDB. V kn: Leshenniye roditelskogo popechitelstva. M.: ProsvesheniY. 1996 S.171-173.
32. Merlin V.S. Voprosi razvitiya sotsialnogo mirovozzreniya u detey. Perm. 1987. 124 s.
33. Merlin V.S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosoznaniye. – Perm, 1990.
34. Mirenskiy B.A. Oila va o‘smir. - T.: «O‘qituvchi», 1991. - 123 b.
35. Normurodov G‘. Ruhshunoslik va inson kamoloti. //Muloqot. 2005. №3.- 27 b.
36. Nurtakasov S.K. Uchebno-vospitatelnaya rabota v detskix domax. Kir. SSR. Frunze. 87 s.1999.– 688 s.
37. Kochetov A.I. Perevospitaniye podrostka. - M., 1972. - 243 s.
38. Kon I.S. Psixologiya ranney yunnosti. Kn. dlya uchitelY. - M.: «Prosvesheniye». 1989. - 254 s.
39. Leongard K. Aksentuirovanniye lichnosti. Kiyev.: «Visha shkola». 1981.- S. 117.
40. Kim.R.P. Samoupravleniye vospitannikov detskix domov kak sredstva nraivstvennogo vospitaniY. Na materialax detskix domov. UzSSR. Tashkent. 1979, -113 s.
41. Ikonnikova S.N. Molodej o sebe, o svoix sverstnikax. - L.: «Znaniye». 1969. - 231 s.
42. Psixogigiyena detey i podrostkov. – M.: 1985. – B. 17-34.

43. Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A. Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.
44. Prixojan A.M. Issledovaniye psixicheskogo razvitiya mladshix shkolnikov vospitannikov v zakritom detskom uchrejeniy. M.:1986.S.79-86.
45. Tuxmurodov E. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari. Diss. Pedyuf.n. Toshkent, 1994, 129 b.
46. Sog‘inov N.A. Sog‘lom avlodni shakllantirishning ayrim jihatlari. // «Sog‘lom avlod uchun». 2002, - № 8. - B.17-32.
47. Spivakoskaya A.S. Psixologicheskiya pomosh seymam, vzyavshim na vospitaniye detey iz gosudarstvennix uchrejeniy. M.: 1991. S.134-135.
48. Slovar prakticheskogo psixologa // Sost. S.Y. Golovin. – Minsk: Xarvest, M.: OOO “Izdatelstvo AST”, 2003. – 800 s.
49. Sotsialnaya psixologiya lichnosti v voprosax i otvetax: Ucheb. posobiye / Pod red. prof. V.A. Labunskoy. – M.: Gardarika, 1999. – 397 s.
50. Xvostov A.A. Resheniye problemq dissiplini v detskiy domax. SSHA-M., v kn. Lisheniye rolitelkogo popechitelstva. M.: 1988, S.81-91.
51. Xaydarov I.O. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsining individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Nomzodlik diss. T.: 1996 y.
52. Feldshteyn D.I. Nekotoriye psixologicheskiye voprosi detey podrostkogo vozrasta. Dushanbe, 1978, 192 s.
53. Freyd A. Razluka s materY. London, 1965, perev. S ang. M.: 1981, 143 s.
54. Chaldini R. Psixologiya vliyaniY. – SPb.: Piter, 2004. – 286 s.
55. Erikson E. Detstvo i obshestvo. – SPb.: 1996  
– T.: 1997. – B. 33.
56. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – T.: 1994.
57. Karimova V., Berdiyev G. Murosa qilish odobi yoki konfliktlarni bartaraf etish mumkinmi?–T.:O‘zPFITI,2003.–44 b.
58. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994

59.Karimova V.M. PsixologiY. O‘quv qo‘llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O‘AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.

60.Mayers D. Sotsialnaya psixologiya / Perv.s angl.–SPb.: Piter,

61.Umarov B.M. Bolalar tarbiyasida etnopsixologik va etnopedagogik xususiyatlarni hisobga olish. //Xalq pedagogikasi bo‘yicha xalqaro simpozium materiallari to‘plami. Termiz, 1995. - B.34-37.

62.Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 1998. - 78 b.

# ILOVALAR

## 16- OSHX ANIQLOVCHI TEST

**Yo'riqnoma:** Ixtiyoringizga Sizning shaxsingizni bir qator xususiyatlarini aniqlashga yordam beruvchi savollar havola etilmoqda. Bu yerda „to'g'ri" yoki „noto'g'ri" savollar yo'q, xamma o'zining dunyoqarashi doirasida haq. Savollarga javob berayotganda havola etilgan uchta javobdan Sizning dunyoqarashingiz, fikringizcha, Sizga to'g'ri keladigan javobni tanlang. Quyidagicha javobni belgilashga harakat qiling: qayd blankasida berilgan to'g'ri javob katakchasiga aniq „X" belgisini qo'ying.

Iloji boricha noaniq javobni berishga intilmang, ko'pi bilan 4—5 savolda ishlatsangiz bo'ladi. Albatta, hamma savollarga ketma-ketlikda javob bering. Yaxshi taassurot uyg'otishga harakat qilmang, haqiqatga yaqin, to'g'ri javobni belgilang.

**1. Mening fikrimcha, onam oldingidan ko'ra ancha o'zgarganlar:**

A) ha; V) javob berishim qiyin; S) yo'q.

**2. Men odamlardan yiroqda, bir o'zim bermalol yashashim mumkin:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**3. Agar osmon pastda, qish issiq deb faraz qilsak, jinoyatchini kim deb aytish mumkin:**

A) bandit; V) ilohiy; S) bulut.

**4. Uxlashdan oldin men:**

A) tez uxlab qolaman; V) gohida; S) qiyinchilik bilan uxlayman.

**5. Mashinalar ko'p yo'lda mashina haydaganimda, meningcha:**

A) mashinalarning ko'p qismini oldinga o'tkazib yuborar edim;

V) javob berishga qiynalaman;

S) oldindagi mashinalarni quvib o'tar edim.

**6. Davralarda men boshqalarga turli qiziq voqealarni aytish va hazillashish imkonini beraman:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**7. Men uchun hamma yerda tartib bo'lishi muhim:**

A) to'g'ri; B) biror narsa deyish qiyin; S) noto'g'ri.

**8. Men bilan bir jamoada bo'lgan insonlarning ko'pchiligi meni ko'rishdan xursand bo'lishadi:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**9. Menga ko'proq yoqadi:**

A) balet yoki figurali uchish; V) aytishga qiynalaman; S) regbi o'ynash.

**10. Odamlarning qilayotgan ishi va aytayotgan gaplari to'g'ri kelmasligi meni ajablantiradi:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**11. Biror voqea to'g'risida o'qiyotganimda meni barcha tafsilotlar qiziqtiradi:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**12. Yaqinlarim mening ustimdan kulisha, men xafa bo'lmasdan ularga qo'shib kulaman:**

A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.

**13. Kimdir menga qo'pollik qilsa, tez unutishim mumkin:**

A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.

**14. Menga biror ishni qilayotganimda eski usuldan foydalanishdan ko'ra yangi usul o'ylab topish yoqadi:**

A) to'g'ri;

V) javob berishga qiynalaman;

S) noto'g'ri.

**15. Men biror ishni rejalashtirayotganimda, uni hech kimning yordamisiz, mustaqil bajarishni ma'qul ko'raman.**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) yo'q.

**16. Men ko'pchilikka qaraganda sekin qo'zg'aluvchan, hissiyotlarim sust deb o'ylayman:**

A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.

**17. Tezda bir qarorga kela olmaydigan odamlar asabimgategadi:**

A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.

**18. Menda, gohida, biroz bo'lsa ham ota-onamga nisbatan asabiylashish hissi paydo bo'ladi.**

A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.

**19. O'zinning dildagi fikrlarim, o'y-xayollarimni o'rtoqlashardim:**

A) do'stlarim bilan;

V) javob berishga qiynalaman;

S) kundalik daftarim bilan.

**20. Menimcha, „noaniq“ so'zining qarama-qarshisi:**

A) pala-partish; V) asosli; S) taxminan.

**21. Menga, har doimgidek kerak bo'lganda kuchim doim yegadi:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**22. Quyidagi odamlar ko'proq asabimga tegadi:**

A) qo'pol hazillari bilan odamlarni xijolatga qo'yadiganlar;

V) biror narsa deyishim qiyin;

S) kelishilgan uchrashuv joyiga kech keladiganlar.

**23. Menga odamlarni mehmonga chaqirish va xursandchilik qilish yoqadi:**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) noto'g'ri.

**24. Mening fikrimcha:**

A) har bir ishni to'la-to'kis bajarish mumkin emas;

V) javob berishga qiynalaman;

S) agar biror ishga qo'l urmoqchi bo'lsang, uni to'la-to'kis bajarish kerak.

**25. Menga gohida xijolatimni yengishga to'g'ri keladi:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**26. Mening do'stlarim ko'pincha:**

A) Men bilan maslahatlashishadi; V) javob berishga qiynalaman;

S) Menga maslahat berishadi.

**27. Agar meni mayda-chuyda narsa bilan aldamoqchi bo'lishsa, uni oshkor qilmasdan o'zimni ko'rmaganga olaman:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**28. Men istayman do'stimning:**

A) qiziqishlari amaliy va ishbilarmonlik ruhida bo'lishini;

V) bilmayman; S) dunyoga falsafiy qarashlari bilan ajralib turishini.

**29. Men o'zim qattiq ishongan narsalarimga odamlar o'zicha fikr bildirayotganini befarqlik bilan eshitishim mumkin:**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) noto'g'ri.

**30. Meni bir paytda qilgan harakatlarim va xatolarim bezovta qiladi:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**31. Agar men uni ham, buni ham birday eplay oladigan bo'lganimda:**

A) shaxmat o'ynagan bo'lardim; V) biror nima deyishim qiyin;

S) „shaharlar“ (shaharlarning bosh harfini aytish) o'yinini o'ynar edim.

**32. Menga kirishimli, xushchaqchaq odamlar yoqadi:**

A) ha; V) javob berishga qiynalaman; S) yo'q.

**33. Men o'ta ehtiyotkor va rejali bo'lganim tufayli boshqalardan ko'ra kamroq noxush, kutilmagan vaziyatlarga duch kelaman:**

A) ha; V) javob berishga qiynalaman; S) yo'q.

**34. Men, kerak bo'lsa, o'z vazifam va majburiyatlarimni esdan chiqarishim mumkin:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**35. Men nohaq ekanligimni tan olishim qiyin:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**36. Men uchun korxonada yanada qiziqarli bo'lar edi:**

A) aynan ishlab chiqarishda, mashina va mexanizmlar bilan ishlashda; V) javob berishim qiyin; S) jamoat ishlari bilan shug'ullanish, odamlar bilan muloqot qilish.

**37. Qaysi so'z boshqalari bilan bog'liq emas:**

A) oy; V) havo; S) quyosh.

**38. Mening diqqatimni bo'ladigan holatlar:**

A) asabimga tegadi;

V) biror pima deyishim qiyin;

S) meni umuman tashvishlantirmaydi.

**39. Agar mening pulim ko'p bo'lsa:**

A) menga nisbatan ko'ra olmaslik hissini tug'dirmaslikka harakat qilardim; V) javob berishga qiynalaman;

S) o'zimni hech narsadan qiynamasdan yashar edim.

**40. Men uchun eng og'ir jazo:**

A) og'ir ish; V) javob berishga qiynalaman; S) yakkalanib qolish

**41. Odamlar hozirgiga nisbatan ko'proq axloq meyorlariga amal qilishlari lozim:**

A) ha; V) javob berishga qiynalaman; S) yo'q.

**42. Men bolaligimda:**

A) og'ir-bosiq, bir o'zim o'ynashni yoqtirar ekanman;

V) javob berishim qiyin; S) juda harakatchan, to'polonchi, bir o'zimni qoldirib bo'lmas ekan.

**43. Menna asboblari bilan ishlashni yoqadi:**

A) ha; V) bilmayman; S) yo'q.

**44. Menimcha, ko'pchilik sudda o'ziga oson bo'lmasa ham to'g'risini aytadi:**

A) ha; V) javob berishga qiynalaman; S) yo'q.

**45. Agar men notanish odam bilan muloqot qilsam:**

A) u bilan siyosat va jamiyat muammolari xususida suhbatlashar edim; V) bilmayman; S) undan bir qator kulgili voqealarni eshitishni xohlar edim.

**46. Men hazilga boshqalardek qattiq kulmagan bo'lar edim:**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) noto'g'ri.

**47. Men hech ham yig'lash darajasida o'zimni baxtsiz his qilmaganman:**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) noto'g'ri.

**48. Menga qo'proq yoqadi:**

A) orkestr ishtirokidagi marsh; V) bilmayman; S) fortepiano musiqasi.

**49. Men ta'tilni o'tkazishni xohlardim:**

A) qishlokda bir-ikkita do'stlarim bilan;

V) javob berishga qiynalaman;

S) sayyohlik lagerig'a boshchilik qilib.

**50. Rejalar tuzishga ketgan harakat:**

A) ortiqchalik qilmaydi; V) javob berishim qiyin; S) o'zini oqlamaydi.

**51. Menga qaratilgan, do'stlarimning o'ylamasdan qilgan xatti-harakatlari va fikrlaridan xafa bo'lmayman va bu meni ranjitmaydi:**

A) to'g'ri; V) bilmayman; S) noto'g'ri.

**52. Qo'limdan kelgan ish men uchun oson tuyuladi:**

A) doim; V) gohida; S) to'g'ri.

**53. Men ishlashni xohlardim:**

- A) doim odamlarning ichida, ular bilan bevosita munosabatda bo'lish imkoni bor korxonada;  
 V) javob berishga qiynalaman;  
 S) bir o'zimiz ishlashni, mas, me'mor o'z loyihasi ustida ishlagani kabi.
- 54. Xona uyga daxldor bo'lgani kabi, daraxt ...**  
 A) o'rmonga; V) o'simlikka; S) bargga.
- 55. Qilayotgan ish doimo o'xshamaydi:**  
 A) ba'zan; V) vaqt-vaqti bilan; S) ko'pincha.
- 56. Ko'pchilik ishlarda quyidagicha yo'l tutaman:**  
 A) tavakkal qilaman; V) qachon qanaqa; S) shunday bo'lsa kerak qabilida.
- 57. Ko'pchilik meni ko'p gapiradi deb hisoblaydi:**  
 A) menimcha, shunday; V) bilmayman; S) o'ylashimcha, yo'q.
- 58. Menga yoqadi odamlar:**  
 A) qat'iyatsiz, ishonchli bo'lmasa ham aqlli bo'lsa;  
 V) javob berishim qiyin; S) o'rtacha qobiliyatli bo'lsa ham, turli-tuman yo'ldan ozdirishlarga og'ishmasa.
- 59. Men qaror qilaman:**  
 A) bir xil odamlardan ko'ra tezroq; V) javob berishga qiynalaman; S) boshqa odamlarga nisbatan sekin.
- 60. Menda ko'proq taassurot uyg'otadi:**  
 A) mohirlik va o'ziga xos go'zallik;  
 V) javob berishim qiyin; S) kuch va qudrat.
- 61. Men o'zimni hamkorlikka moyil inson deb bilaman:**  
 A) ha; V) shunga yaqinroq; S) yo'q.
- 62. Menga dangalchi, to'g'ri so'z odamlardan ko'ra muomalani biladigan, nozik didli odamlar bilan ganlashish yoqadi:**  
 A) ha; V) javob berishga qiynalaman; S) yo'q.
- 63. Menga ma'qul:**  
 A) Menga taalluqli masalalarni o'zim hal qilish;  
 V) javob berishga qiynalaman;  
 S) do'stlarim bilan maslahatlashish.
- 64. Maktab davrimda men ko'proq bilim olganman:**  
 A) mashg'ulot paytida; V) javob berishga qiynalaman;  
 S) kitob o'qib.
- 65. Agarda menga darhol javob berishmasa, o'zimni biror nojo'ya so'z aytib qo'ygandek his qilaman:**  
 A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.
- 66. Javobgarligi bor jamoat ishlaridan qochishga harakat qilaman:**  
 A) to'g'ri; V) ba'zan; S) noto'g'ri.
- 67. Mendan ko'p harakat talab qiladigan masalada:**  
 A) boshqa ish bilan shug'ullanaman; V) javob berishga qiynalaman;  
 S) bir urinib ko'raman.
- 68. Menda aytarli sabablarsiz, xavotirlanish, asabiylik, o'z-o'zidan kulish holatlari paydo bo'ladi:**  
 A) ha; V) gohida; S) yo'q.
- 69. Ba'zida men har doimgidan ko'ra yomonroq anglayman:**  
 A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.
- 70. Menga biroz noqulaylik tug'dirsa ham, odamlarga o'ngay vaqt va joyda uchrashuv belgilab, keyin buni eslatish yoqadi:**  
 A) ha; V) gohida; S) yo'q.
- 71. Quyidagi 1, 2, 3, 6, 5 sonlardan iborat qatorni davom ettirishi mumkin bo'lgan son:**  
 A) 10; V) 5; S) 7.

**72. Gohida menda aytarli sabablarsiz bosh aylanishi va ko'ngil aynash holatlari uchrab turadi:**

A) ha; V) kamdan kam; S) hech qachon.

**73. Men ofitsiantga ortiqcha tashvish gug'dirgandan ko'ra, o'z buyurtmamdanda voz kechishni ma'qul ko'raman:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**74. Men boshqa odamlardan ko'ra bugungi kun bilan ko'proq hisoblashaman:**

A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.

**75. Tantalarda menga yoqadi:**

A) ish bo'yicha qiziqarli suhbatda ishtirok etish; V) javob berishga qiynalaman; S) hamma bilan hordiq chiqarish.

**76. Kim meni eshitishidan qat'i nazar, o'z fikrimni bildiraman:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**77. O'tmishga qaytishning iloji bo'lganda:**

A) Nyuton bilan uchrashardim; V) javob berishga qiynalaman; S) Shekspir bilan uchrashardim.

**78. Men o'zimni boshqalarning ishi bilan o'ralashib qolishdan tiyaman:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**79. Do'konda ishlaganimda:**

A) vitrinani bezatgan bo'lardim; V) kassir bo'lardim; S) javob berishga qiynalaman.

**80. Agar odamlar men to'g'rimda yomon fikrga borishsa, ularga tushuntirgandan ko'ra o'zim ma'qul topgan usulda harakatlanaveraman:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**81. Agar eski tanishim mendan qochib, sovuq munosabatda bo'lsa:**

A) „Uning kayfiyati yo'q" deb o'ylayman;

V) javob berishga qiynalaman;

S) qanday xatoga yo'l qo'yganligimni o'ylay boshlayman.

**82. Quyidagi odamlardan ko'pchilik noxushliklar kelib chiqadi?**

A) masalani hal qilishning oson usullari mavjud bo'lsa ham, o'z fikrini o'tkazadiganlardan;

V) javob berishga qiynalaman;

S) yangi, muvaffaqiyatga erishtiruvchi usullardan voz kechadiganlardan.

**83. Shu orada sodir bo'lgan voqealarni aytishdan qoniqish his qilaman:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**84. Talabchan, ozoda odamlar men bilan chiqisha olmaydilar:**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) noto'g'ri.

**85. Birovlarga nisbatan asabiy emasman;**

A) to'g'ri; V) javob berishga qiynalaman; S) noto'g'ri.

**86. Menga boshqalar bilan hisoblashmaslik, o'zim bilan hisoblashmaslikdan ko'ra osonroq:**

A) to'g'ri; V) gohida; S) noto'g'ri.

**87. Menda ertalabdan hech kim bilan gaplashgim kelmagan holatlar uchrab turadi:**

A) ko'pincha; V) gohida; S) hech qachon.

**88. Aniq tekshirilgan soatda strelkalar 65 minutda teng**

**kelsa, bu soat:**

A) qolib ketgan; V) to'g'ri yurayapti; S) oldinda.

**89. Men zerikaman:**

A) ko'pincha; V) gohida; S) juda kam.

**90. Odamlar menga hamma narsani o'zimning alohida usulimda bajarishimni ko'p marta aytishgan:**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) noto'g'ri.

**91.Ortiqcha xavotirdan qochish kerak deb hisoblayman, chunki ular odamni charchatadi:**

A) ha; V) gohida; S) noto'g'ri.

**92.Uyda bo'sh vaqtimda men:**

A) hamma ishlardan dam olaman; V) javob berishta qiynalaman;  
S) meni qiziqtirgan ish bilan mashg'ul bo'laman.

**93.Yangi odamlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga ehtiyotkorlik bilan yondashaman:**

A) to'g'ri; V) ba'zan; S) yo'q.

**94.Odamlar she'r qilib aytgan narsalarni prozada ham aytsa bo'ladi:**

A) ha; V) javob berishga qiynalaman; S) yo'q.

**95.Men bilan do'stona munosabatlarda bo'lgan odamlar, mening orqamdan menga do'st emasdek tuyulishadi:**

A) ko'pchilik holatlarda, ha; V) gohida; S) yo'q, juda kam.

**96.Eng achinarli hodisalar ham bir yildan keyin mening ko'nglimda iz qoldirmaydi:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**97.Mening fikrimcha, qiziqarliroq:**

A) o'simliklar bilan ishlash; V) javob berishta qiynalaman; S) sug'urta agenti bo'lish.

**98.Turli aqidalarga ishonib (hayvon, joy, kunlarga nisbatan), o'zimdagi xavotir, qo'rquv sezaman:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**99.Men dunyoni qanday yaxshilash mumkinligi to'g'risida o'ylashni yoqtiraman:**

A) ha; V) javob berishim qiyin; S) yo'q.

**100.Men quyidagi o'yinlarni ma'qul ko'raman:**

A) guruh bo'lib yoki sheriklikda o'ynashni; V) javob berishga qiynalaman; S) har kim o'zi uchun o'ynaydigan o'yinni.

**101.Kechqurun men fantastik, g'alati tushlar ko'raman:**

A) ha; V) ba'zan; S) yo'q.

**102.Agar bir o'zim qolsam, birozdan keyin xavotir, qo'rquv hissini sezaman:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**103.O'zimga barchaga baravar do'stona munosabatim bilan, ko'pincha odamlarni anglashmovchilikka solishim mumkin:**

A) ha; V) gohida; S) yo'q.

**104.Qaysi so'z qolgan ikkisidan farq qiladi:**

A) o'ylash; V) ko'rish; S) sindirish.

**105.Agar Fotimaning onasi Alinning otasiga singil bo'lsa, Fotimaning onasiga nisbatan Ali kim bo'ladi**

A) amaki; V) jiyan; S) tog'a.

### QAYD QILISH VARAQASI

		A	V	S		A	V	S		A	V	S		A	V	S		A	V	S				
md	1				I				35				3				69				86			103
A	2				I				36				5				70				87			
V	3				2				37				5				71				88			104
S	4				2				38				5				72				89			105
YE	5				2				39				5				73				90			
G'	6				2				40				5				74				91			



**8 ball** dan yuqori — dominantlik, shaxs faolligi, keragidan ortiq o'ziga ishonuvchanlik, o'z-o'zi uchun qonun, boshqaruvchilik xususiyatiga ega, nizoli vaziyatlarda boshqalarni ayblaydi, talabchanlik...

**4 — 7 ball.** Yetakchi ijobiy munosabatda bo'ladi.

**3 ball.** Boshqalarga bo'ysunuvchan, o'z fikri va takliflari lablarini ochiq ayta olmaydi, o'ta xijolatli.

#### **5. FIKRLASH DARAJASI „G“**

**8 ball.** Hayotdan xursand, betashvish, impulsiv, ekspressiv, faol sergap.

**4 — 7 ball.** O'rtacha.

**3 ball.** O'ta ehtiyotkor, akliy faoliyat yuritishga moyil, har qanday vaziyatda o'zini tuta biladi, pessimist, talabchan.

#### **6. „MEN“ NING NAMOYON BO'LIH DARAJASI „S“**

**10 ball.** Qabul qilgan qarorlarini anglanganligi, maqsadga erishishda qat'iyat, javobgarlik hissining yuqoriligi. Mavjud qadriyatlar, o'rnatilgan tartibda harakatlanishni ma'qul deb biladi, prinsipial.

**6 — 9 ball.** O'rtacha.

**3 — 5 ball.** Vaziyat-holatga beriluvchan, beqarorlik, o'zini tartib-qoidalar bilan bog'lashni yoqtirmaydi, guruh ta'siridan qochadi, prinsipsiz.

#### **7. MARDLIK DARAJASI „N“**

**10 ball.** Mard, xavf-xatarga moyil, hissiy reaksiyalarga boy, notanish narsalar bilan ishlashdan qo'rqmaydi.

**6—9 ball.** O'rta.

**5 ball.** Juda xijolatli, o'ta ehtiyotkor, soyada yurishni ma'qul deb hisoblaydi, jamoada o'ziga yaqin kichik guruhlarni ma'qul ko'radi.

#### **8. QATTIQQO'LLIK DARAJASI „J“**

**9 ball** dan yuqori — himoya ostida bo'lishni istaydi, xayolparast, yuvvosh, nozik vaziyatlarda tajribasiz. Tajriba orttirishga moyillik yo'q.

**6 — 8 ball.** o'rta ijobiy.

**1 — 5 ball.** Keragidan ortiq — o'ziga ishonch hissi, subektiv (vaziyatning salbiy taraflarini nazardan qochirmaydi), skeptik, mustaqillikka intiluvchan, kinoyali, odamlarni kamsitishga, xatolarini topishga va ko'rsatishga moyil.

#### **9. ISHONUVCANLIK DARAJASI „L“**

**6 ball.** dan yuqori — o'ta xavotirlanishga moyil, hech kimga ishonmaydi, qiziqishlar doirasi o'ziga yo'naltirilgan, boshqalarning xatosini qidirishga harakat qiladi.

**3—5 ball.** O'rta.

**1—2 ball.** Odamlar bilan ishonarli munosabatlarga kirisha oladi, tushunish, hamdardlik hissi kuchli, jamoaga ijobiy ta'sir o'tkaza biladi.

#### **10. AMALIYLIK DARAJASI „M“**

**9 ball** — tasavvur boyligi, o'z dunyosida, amaliy ishlarda yordamga muhtoj, jamoadagi munosabatlari murakkab tusda.

**5 — 8 ball.** O'rta.

**1—4 ball.** Ijodiy tasavvurning yo'qligi, tashqi ta'sirlarga, o'rnatilgan meyorlarga beriluvchan, ba'zida juda mayda-chuyda narsalarga e'tiborli.

### **11. VAZIYATGA YONDASHISH DARAJASI „N”**

**8 ball** dan yuqori — o‘ta hisob-kitobli, vaziyatning har tarafini inobatga oladi, gohida o‘z foydasiga.

**4 — 7 ball.** O‘rta.

**1 — 3 ball.** Vaziyatni boricha qabul qiladi, erishgan yutuklaridan mag‘rurlanishga, gohida qo‘pollikka moyil.

### **12. TASHVISH-XAVOTIR DARAJASI „O”**

**8 ball.** Xavotirlanishga moyil, sertashvish, o‘ziga ishonmaydi, doim salbiy hissiyotlar ta’sirida.

**4 — 7 ball.** O‘rta.

**1—3 ball.** Og‘ir-bosiq, o‘ziga ishonch hissi mavjud, o‘ziga qarata aytilgan fikrlardan ta’sirlanmaydi.

### **13. RADIKALLIK DARAJASI “Q<sub>1</sub>”**

**10 ball** dan yuqori — intellektual qiziqishlariga fundamental muammolar asosida yondashish, mavjud barcha prinsiplarni o‘rganish, eksperimentga moyillik. Yangi holat va vaziyatlarga oson o‘rganadi, moslashish darajasi yuqori.

**7— 9 ball.** O‘rta.

**1—6 ball.** O‘rnatilgan tushunchalar bilan chegaralanish, ularga intilish xos. Mavjud prinsip, odatlarni qo‘llab-quvvatlash, yangilik, o‘zgarish va yangi g‘oyalarga ishonmaslik Konservatizm — ma’lum vaziyat-holat yuzasidan boshqasiga o‘tish qiyinligi, yangi vaziyatga o‘rgana olmaslik.

### **14. TA’SIRCHANLIK DARAJASI „Q<sub>2</sub>”**

**8 ball.** O‘z qarashlarida mustaqil, mustaqil fikrlash asosida harakatlanish, o‘z qarorlarini chiqarishga moyil, o‘z fikrini ma’qul deb biladi.

**4 — 7 ball.** O‘rta.

**1 — 3 ball.** Atrofdagilarning fikriga muhtoj, qarorni birgalikda qabul qilishga yo‘nalgan, ijtimoiy tan olinishiga harakat qiladi.

### **15. O‘ZINI NAZORAT QILISH DARAJASI „Q<sub>3</sub>”**

**9 ball** dan yuqori o‘ta tartibli, ijtimoiy talablarni aniq bajaradi, o‘z hissiyotlari, harakatlarini kuchli nazorat qiladi, jamiyatdagi o‘rnidan ko‘proq tashvishlanadi.

**5 — 8 ball.** O‘rta.

**1 — 4 ball.** Tartibsizlik, intizom past, o‘z ichki dunyosi bilan kelisha olmaydi, o‘zini nazorat qilish darajasi pastligi, o‘rnatilgan tartib-qoidalarga rioya etmaydi, o‘z hayajoni va hissiyotlariga beriluvchan.

### **16. ZO‘RIQISH DARAJASI „Q<sub>4</sub>”**

**9 ball** dan yuqori — o‘ta ta’sirchan, hayajoni kuchli, asabiy, besabr, o‘z yo‘lini topa olmaydigan ichki intilishlari mavjud (imkoniyatlarini yo‘llay bilmaydi).

**4 — 8 ball.** O‘rta.

**1 — 3 ball.** O‘ta bosiq, erinchoq, qiziqishlari yo‘q.

### **MD YOLG‘ON DARAJASI**

**9 — 12 ball.** Shaxsning to‘g‘riso‘zligidan dalolat beradi.

**1—4 ball.** Berilgan ma’lumotlarning noto‘g‘ri ekanligi to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Temperament xususiyatlari „A".Emotsional xususiyatlari G",O",”O “

Tashvish-xavotir darajasi — „0<sub>4</sub>", „0<sub>3</sub>" S, N, M, L.

„YE" darajasining yuqoriligi. Dominantlik xususiyatlari shaxs faolligi, xarakter mustaqiligi, talabchanlik, javobgarlik, amaliylik, tashqi omillarni boshqara bilish xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

**5. «O‘smirlarning xarakter xususiyatlarini o‘rganish testi».** Ushbu test-so‘rovnoma K.Leongard tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u 88 savoldan iborat. Test savollariga «Ha» yoki «Yo‘q» deb javob beriladi. Agarda berilgan savol sinaluvchining shaxs va xarakter xususiyatiga mos kelsa, «Ha» deb, mos kelmasa, «Yo‘q» deb belgilanadi.

### Xarakter xususiyatlarini aniqlash so‘rovnomasi ( K.Leongard testi)

№	S A V O L L A R	Ha	Yo‘q
1	Sizda xushchaqchaq, xursand va betashvish kayfiyat tez-tez bo‘lib turadimi?		
2	Siz haqoratlarni tez o‘zingizga olasizmi?		
3	Sizda kinofilm ko‘rayotganingizda, teatrda yoki birov bilan gaplashayotganingizda ko‘zingizda yosh qalqigan paytlar bo‘ladmi?		
4	Biror ish qilganingizda uning to‘g‘riligidan ikkilansangiz, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga ishonch hosil qilganingizcha o‘zingizni xotirjam his qilasizmi?		
5	Yoshligingizda boshqa tengdoshlaringiz kabi dovyurak va xafaqon bo‘lganmisiz?		
6	Sizning kayfiyatingiz behad xursandchilikdan keyin birdaniga hayotdan va o‘zingizdan ko‘ngil qolish darajasigacha o‘zgaradimi?		
7	Jamoad, tengdoshlaringiz davrasida barchaning diqqat markazida bo‘laolasizmi?		
8	Hech bir sababsiz kayfiyatingiz tushib, siz bilan gaplashmagan ma‘qul bo‘ladigan holatga tushasizmi?		
9	Siz jiddiy odammisiz?		
10	Siz nimadandir behad xursand bo‘lish, zavqlanish qobiliyatiga egamisiz?		
11	Siz uddabo‘ronmisiz?		
12	Sizni biror kishi xafa qilsa tezda unutib yuborasizmi?		
13	Siz yumshoqko‘nglmisiz?		
14	Xatni xat qutisiga tashlab uning yashikka tushganini yana bir karra tekshirib ko‘rasizmi?		
15	Siz doimo peshqadamlar safida bo‘lishga harakat qilasizmi?		
16	Yoshligingizda momoqaldiraq yoki begona itga duch kelganingizda sizda qo‘rqinch holati yuzaga kelganmi?		
17	Siz har doim va hamma joyda tartib o‘rnatishga intilasizmi?		
18	Sizning kayfiyatingiz tashqi vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladimi?		
19	Sizni tanishlaringiz yoqtiradimi?		
20	Sizda kuchli ichki bezovtalik, xavfsirash, ko‘ngil g‘ashlik holatlari tez-tez bo‘lib turadimi?		

21	Sizda ruhiy tushkunlik holati tez-tez bo'lib turadimi?		
22	Sizda biror marotaba bo'lsa ham kuchli asabiylik yoki asab buzilish holati bo'lganmi?		
23	Sizga bir joyda uzoq o'tirish qiyinmi?		
24	Agar sizga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lsalar, siz o'z qarashlaringizni qattiq turib himoya qilaolasizmi?		
25	Siz tovo'q yoki qo'yni so'yaolasizmi?		
26	Agar uyingizda deraza pardasi yoki stol skaterti qiyshiq turgan bo'lsa, bu sizning g'ashingizga tekkanidan darhol uni to'g'irlab qo'yasizmi?		
27	Siz yoshligingizda bir o'zingiz qolishdan qo'rqqanmisiz?		
28	Sizda sababsiz kayfiyat buzilish holati bo'lib turadimi?		
29	Siz o'z tengqo'rlaringiz orasida eng tajribali, kuchli va nafasatli bo'lishga har doim intilasizmi?		
30	Siz tezda xafa bo'lasizmi?		
31	Siz mutloqo tashvishsiz, baxtiyor odam bo'laolasizmi?		
32	Sizda baxtiyorlik butun vujudingizni qamrab olgan paytlar bo'ladimi?		
33	Kulgili ( yumoristik ) spektaklda boshlovchilik qilaolasizmi?		
34	Siz odatda fikringizni boshqalarga ochiq-oydin ayta olasizmi?		
35	Najotsizlik, boshpanasizlik holatini qanday o'z boshingizdan kechiraolasiz?		
36	Siz yuqori mas'uliyat talab qiladigan ishni xush ko'rasizmi?		
37	Adolatsizlik qilishayotgan kishiga yordam berish uchun o'zingizda kuch topaolasizmi?		
38	Qorong'i yertulaga tushishdan hadiksiraysizmi?		
39	Siz tez harakatlanish talab qiladigan lekin sifat darajasiga unchalik e'tibor qaratilmaydigan ishda ishlashda xohlaysizmi?		
40	Siz xushmuomala va kirishimlimisiz?		
41	Siz maktabda she'r o'qishni xush ko'rarmidingiz?		
42	Yoshligingizda uydan qochib ketgan paytlaringiz bo'lganmi?		
43	Sizningcha hayot qiyinmi?		
44	Siz birov bilan janjallashib, qattiq xafa bo'lganingizda qo'lingiz ishga bormay qoladimi?		
45	Muvaffaqiyatsizlik paytida ham siz hazilkashlikni yuqotmaysizmi?		
46	Siz biror kishi xafa qilgan bo'lsa yarashish uchun birinchi bo'lib harakat qilasizmi?		
47	Siz hayvonlarni juda yaxshi ko'rasizmi?		
48	Siz uyingizdan yoki ishxonangizdan chiqqaningizda biror narsani unutganday ( eshikni qulflamaganday, gazni yoki elektr lampasini o'chirmaganday ) bo'layapsiz shunda izingizga qaytasizmi?		
49	Sizni ba'zan o'zingizga yoki yaqinlaringizga nimadir bo'lishi mumkinday fikr qamrab oladimi?		
50	Siz kayfiyatingizni juda tez o'zgaruvchan deb hisoblaysizmi?		
51	Ko'pchilikning oldida so'zga chiqish sizga qiyin tuyuladimi?		
52	Sizni birov haqorat qilsa uni dupposlay olasizmi?		
53	Sizda boshqa kishilar bilan suhbatlashish ishtiyoqi tez-tez bo'lib turadimi?		
54	Biror narsadan ko'nglingiz qolsa umidsizlikka tushasizmi?		

55	Sizga kuchli tashkilotchilik qobiliyati talab qiladigan ish yoqadimi?		
56	Maqsadingiz, yo'lida garchi unga erishishda qator qiyinchiliklar bo'lsada intilasizmi?		
57	Ta'sirchan kinofil'mlar ko'zingizga yosh keladigan holatda ta'sir qiladimi?		
58	Sizda o'tgan kunlar yoki ertaga bo'ladigan voqealarni eslab tez-tez uxlay olmasdan qiynalgan vaqtlaringiz bo'lganmi?		
59	Maktabda o'rtoqlaringizga uy vazifasini ko'chirishga bergan yoki bilmagan paytlarida yordam bergan paytlaringiz bo'lganmi?		
60	Kechasi bir o'zingiz qabriston aylanib chiqish uchun o'zingizda kuch topa olasizmi?		
61	Xonangizda barcha narsalarning o'z joyida turishini ta'minlashga harakat qilasizmi?		
62	Sizda uyqudan oldin yaxshi kayfiyat bilan uxlashingizga qaramasdan ertalab ko'nglingiz g'ash bo'lib turgan paytingiz bo'ladimi?		
63	Siz yangi vaziyatga osonlik bilan moslasha olasizmi?		
64	Sizda bosh og'rig'i bo'lib turadimi?		
65	Siz tez-tez kulib turasizmi?		
66	O'zingiz yoqtirmagan, hurmat qilmagan kishi bilan salomlashasizmi?		
67	Siz harakatchan odammisiz?		
68	Siz adolatsizlikdan juda ko'p qayg'orasizmi?		
69	Siz tabiatni yaqin do'stingiz sifatida sevasizmi?		
70	Uxlashdan oldin gazning, elektr lampasining uchirilgan yoki uchirilmaganligini, eshikning qulflanganligini tekshirib ko'rasizmi?		
71	Siz juda qo'rqoqmisiz?		
72	Spirтли ichimlik ichganingizda kayfiyatingiz o'zgaradimi?		
73	Yoshlik (bolalik) davringizda badiiy havaskorlik (teatr, raqs, qo'shiq) tugaraklariga qatnashganmisiz va hozir ham qatnashib turasizmi?		
74	Siz hayotni faqat g'am-tashvishlardan iborat deb o'ylaysizmi?		
75	Siz tez-tez sayohat qilib turishni xohlaylaysizmi?		
76	Sizning kayfiyatingiz xursandchilik holatidan g'amginlik holatiga birdaniga o'tib ketadigan darajada o'zgaradimi?		
77	Do'stlar davrasida do'stlaringizning kayfiyatini osonlik bilan ko'tara olasizmi?		
78	Uzoq vaqt xafa bo'lib yurasizmi?		
79	Boshqa birovlarining g'am-qayg'usidan anchagacha o'zingizga kela olmay yurasizmi?		
80	O'quvchilik vaqtingizda daftaringizga siyoh to'kilib, boshqatdan ko'chirgan paytingiz bo'lganmi?		
81	Kishilarga ishonishdan ko'ra, ishonavermaslikka ehtiyotlik bilan qaraysizmi?		
82	Qo'rqinchli tushlarni tez-tez ko'rib turasizmi?		
83	Sizda yurib ketayotgan poyezd ostiga tushib ketishdan, ko'p qavatli uyning derazasidan yiqilib tushishdan qo'rqish holati bo'ladimi?		

84	Sho‘x va xushchaqchaq davrada siz har doim ham sho‘x va xushchaqchaq bo‘la olasizmi?		
85	Siz o‘z yechimi talab qilinadigan murakkab vaziyatlardan o‘zingizni uzoqroq olib yurishni xohlaysizmi?		
86	Spirтли ichimlik ichganingizda o‘zingizni jahldor yoki erkin his qila olasizmi?		
87	Suhbatlashganingizda siz ko‘proq tinglaysizmi yoki gapirasizmi?		
88	Sahnada biror rolni o‘ynashga to‘g‘ri kelganda uni shunchalik tirishib o‘ynaganligingizdan uning bor yo‘g‘i o‘yin ekanligini unutib qo‘yasizmi?		

### **Test ballarini hisoblash tartibi**

K.Leongard so‘rovnomasi shkalalari bo‘yicha ballarni hisoblash har bir shkala bo‘yicha olingan ballar yig‘indisi kalit bo‘yicha belgilangan muayyan songa ko‘paytiriladi. Unutmaslik kerakki, aksentuatsiya darajasining yuqoriligi patologik holat emas balki, xarakterdagi yorqin ifodalanuvchi fe‘l-atvor xususiyatlarining namoyon bo‘lishidir.

### **Test javoblarini baholash kaliti**

1. Gipertim tip  $x^3$  (ballar yig‘indisini 3ga ko‘paytiriladi)+: 1,11,23,33,45,55,67,77. yo‘q.
2. Qo‘zg‘aluvchan tip  $x^2$  +: 2,15,24,34,37,56,68,78,81, - 12,46,59.
3. Emotiv tip  $x^3$  +: 3,13,35,47,57,69,79. - :25.
4. Pedantik tip  $x^2$  +: 4,14,17,26,39,48,58,61,70,80,83. -: 36.
5. Ta’sirchan tip  $x^3$  + :16,27,38,49,60,71,82. - : 5.
6. Namoyishkor tip  $x^2$  +: 2,7,19,22,29,41,44,63,66,73,85,88. - : 51.
7. Siklotomik tip  $x^3$  +: 6,18,28,40,50,62,72,84. - : yo‘q.
8. Affektiv–ekzaltir tip  $x^3$  +: 8,20,30,42,64,74,86, - yo‘q
9. Distimik tip  $x^3$  + : 9,21,43,75,87. -: 31,53,65.
10. Ekzaltir tip  $x^6$  + : 10,32,54,76. - : yo‘q.